

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT” FAKULTETI

“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrası

«Himoyaga ruxsat etiladi»

Kafedra mudiri

Dots.S.K.Xudoyqulov

«_____»_____2013 yil

**MAVZU: JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN
DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA SOLIQ IMTIYOZLARI
SAMARADORLIGINI BAHOLASH TARTIBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR: «Davlat
moliyasi va soliqlar» kafedrası katta
o'qituvchisi Shomansurova Z.

BAJARDI: «Soliqlar va soliqqa
tortish» ta'lim yo'nalishi 4-kurs
talabasi Raxmonov Xurshidbek
Shavkat o'g'li

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi
_____sonli bayonnoma «_____»_____2013 yil.

T O S H K E N T – 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning nazariy asoslari	9
1.1. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning nazariy asoslari va xususiyatlari.....	9
1.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati.....	25
1.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning ahamiyati	
1-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashning amaldagi holati tahlili.....	33
2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samardorligining amaldagi holati tahlili	33
2.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samardorligining amaldagi holati tahlili	40
2.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'siri tahlili	59
2-bob. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish masalalari	66
3.1. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashni takomillashtirish aholi daromadlarini oshirish omili sifatida	66
3.2. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish	72
Xulosa va takliflar.....	79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	83

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy islohotlarga mos ravishda soliq tizimida chuqur o'ylangan chora tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ushbu masala xususida alohida to'xtalib o'tgan edilar: «Hech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012 yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.

2013 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajada oshirish, 2013 yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda»¹.

Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta'sirning qanchalik darajada bo'lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiylar tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, agar ta'sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo'lsa daromadlarni ko'proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo'lgan qiziqishlar bir muncha so'nadi, aksincha, soliq yuki kam bo'lsa aks holat yuz beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjet-soliq munosabatlarining kichik tizimi sifatida, xususan, ularning daromadlaridan bir qismini davlatning markazlashtirilgan fondini tashkil etish uchun davlat byudjetiga olib qo'yish jarayonida yuzaga kelgan munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

¹ Islom Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: O'zbekiston, 2013, 19-bet.

2013 yilga davlatimiz soliq va byudjet siyosati soliq yukini yanada kamaytirishga, investitsiya va ishchanlik muhitini yaxshilashga, iqtisodiyotni modernizatsiyalashni rag'batlantirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga, shuningdek, makroiqtisodiy mutanosiblikni va aholi turmush farovonligi o'sishini ta'minlashga qaratilgan.

Soliq siyosati kontsepsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish kelgusi yilda mamlakat iqtisodiyoti zimmasiga tushadigan soliq yukini YaIMga nisbatan 0,3 foiz qisqarishini ta'minlaydi. Soliq yukini yanada qisqartirish chora-tadbirlaridan biri sifatida jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan eng kam soliq stavkasini birinchi shkala bo'yicha 9 foizdan 8 foizga kamaytirish hisobiga jismoniy shaxslar tasarrufida 186 milliard so'm qolishi imkonini beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, asosan aholining pirovard pul daromadlari darajasiga ta'sir qiladi, shu bilan birga, davlat uni olinadigan daromatlardan yanada maqsadga muvofiq foydalanish uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida harakatga keltiradi. Ushbu soliq tufayli daromadlarning, avvalo yuqori daromadlarning bir qismini aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lgan toifalari uchun yoki jamiyat manfaatlari yo'lida qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi hamda daromatlardagi tengsizlik darajasi ma'lum darajada qisqaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti iste'mol fondini shakllantirish holatini tubdan o'zgartirib yubordi. Hozirda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjet daromadlarini 11,0-13,0 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlaridan olinadigan soliq tushumlar miqdori bo'yicha etakchi o'rinni egallaydi, bizning davlatimizda ham ushbu soliq byudjet daromadining asosiy manbalaridan biri bo'lib qoladi.

Shu jihatdan soliq tizimining eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliqni isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, bozor munosabatlari rivojlangan sari davlat byudjeti tarkibida bu soliqning salmog'i orta boradi. Soliq solishning bu turi aholining

turmush darajasini tartibga solish uchun imkon yaratadi, imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi. Ayni vaqtda u tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek jismoniy shaxslarning to'lov qobiliyati yuqoriroq bo'lgan qatlamlaridan ko'proq soliq olish hisobiga byudjet daromadlarining muntazam ortib borishni ta'minlash imkonini beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash, stavkalarini pasaytirish va hisobga olish, daromadlarning qonuniyligini ta'minlash va to'liq to'langanligini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib, ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tartibini amalga oshirish va takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliqlar va soliqqa tortish sohasidagi nazariy va amaliy muammolar xorijiy iqtisodchi-olimlar A.Brmzgalin, A.Isaev, M.Kulisher, A.Laffer, I.Mayburov, L.Pavlova, U.Petti, V.Pushkaryova, D.Rikardo, A.Smit, A.Sokolov, N.Turgenev, D.Chernik, T.Yutkinlarning ilmiy asarlarida yoritilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda aholi pul daromadlarini ko'paytirish muammolarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Aholi daromadlari va uni oshirishning nazariy jihatlarini mamlakatimiz olimlaridan A.Vahobov, R.Xasanov, A.Ulmasovlarning ilmiy ishlarida kengroq yoritildi. Ushbu ilmiy ishlar aholi pul daromadlarini oshirishning nazariy jihatlarini tadqiq etishga bagishlangan bo'lib, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish masalalari o'rganilgan. Respublikamizda soliq tizimining rivojlanishini fundamental va amaliy jihatlarini tadqiq etishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan olimlardan M.Almardonov, E.Gadoev, A.Jo'raev, T.Malikov, O.Olimjonov, U.Radjabov, B.Toshmurodova, Sh.Toshmatov, N.Haydarov, Q.Yahyoevlar nomini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bevosita jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitidagi muammolarini tadqiq etgan O.Abduraxmanovning ilmiy

ishlarida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i bilan birga boshqa soliqlarni hisoblash uslubiyatini takomillashtirish va qisman jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash tizimi tadqiq etilgan, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi samaradorligini oshirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqilgan. I.Yuldashevning ilmiy ishlarida esa, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda umumdeklaratsiyalash tizimini respublikamiz amaliyotida joriy etish bilan bog'liq muammolar tadqiq etilgan.

Bizning tadqiqot ishimizda birinchidan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tartibining afzallik jihatlarni o'rganilishi; ikkinchidan, daromad solig'ining aholi turmush darajasini oshirishga ta'siri nuqtai-nazaridan tahlil etilganligi va uchinchidan, soliq bo'yicha berilgan imtiyozlar tizimida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar tadqiq etiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tartibini o'rganish va uni takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal etish belgilandi:

- jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning kontseptual jihatlarini tadqiq etish;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlari shakllanishidagi salmog'i tendentsiyalari va uning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarining jismoniy shaxslar daromadiga ta'sirining amaldagi holatini o'rganish;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish;

Tadqiqot ob’ekti va predmeti. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i bo’yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tartibi tadqiqot ob’ekti hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i bo’yicha soliq imtiyozlarini qo’llash jarayonida byudjet bilan soliq to’lovchilar o’rtasida shakllangan moliyaviy munosabatlar majmuasidan iborat.

Tadqiqot uslubi va uslubiyati. Bitiruv malakaviy ishini yozishda tadqiqotning uslubiy asosi bo’lib soliq siyosati va soliq amaliyotiga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidentning jismoniy shaxslar darosadlari va ularni soliqqa tortishga oid, moliya-soliq siyosati va soliq amaliyotiga bag’ishlangan farmonlari, qarorlari va ilmiy asarlari, chet el va mamlakatimizning iqtisodchi olimlarining soliq sohasidagi ilmiy asarlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi va boshqa tegishli idoralarning meyoriy-huquqiy hujjatlari xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda mantiqiy va qiyosiy tahlil, o’rtacha ko’rsatkichlarni qo’llash, statistik guruhlash, grafik tasvirlash kabi usullardan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan kelgusida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i bo’yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tartibi takomillashtirishga bag’ishlangan mustaqil tadqiq etishga bag’ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida olingan natijalar va amaliy takliflar Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i bo’yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashda, bitiruv malakaviy ishi materiallaridan oliy o’quv yurtlarida «Soliq tarixi va nazariyasi», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Davlat byudjeti», «Soliqlarni prognoz qilish» fanlarini o’qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Ishning birinchi bobida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning nazariy asoslari yoritib berildi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni undirish mexanizmining amaldagi holati va ular bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash amaldagi holati tahlil etildi.

Ishning so'ngi uchinchi bobida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish masalalari o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqadigan xulosa va takliflar hamda tavsiyalar berib o'tilgan.

1-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning nazariy asoslari

1.1. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning nazariy asoslari va xususiyatlari

Soliqlar to'grisidagi iqtisodiy qarashlar tarixan ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga berilgan ta'riflarni tahlil qilish avvalambor, ularning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatini asoslash, solikdarning iqtisodiyotdagi rolini va soliqqa tortish printsiplarini belgilash, shuningdek, soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligining tutgan o'rnini aniqlash uchun zarurdir.

Iqtisodiy adabiyotda olimlarning aksariyati soliqlarni ikkita muhim xususiyati, ya'ni majburiyligi va ekvivalent huquqni bermasligi bilan ta'riflaydi. O.Abduraxmanov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagicha ta'rif bergan: «Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalentsiz majburiy to'lovlaridir»².

A.Adizov esa, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumlashtirilgan holda, «jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar- davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm va o'rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdir»³, deb ta'rif bergan. Mazkur ta'rifning muhim jihati shundaki, uning muallifi ba'zi xorijiy iqtisodchilar singari soliqlar borasida aholi mas'ulligini ta'kidlash bilan cheklanmagan, balki davlat ham o'z zimmasidagi majburiyatni adolatli tarzda bajarishi lozimligini ta'kidlaydi. Mazkur majburiyat soliqlar vositasida yigilgan mablag'larni xalq manfaatidan kelib chiqqan holda tejamli sarflash hamda bu borada soliq to'lovchilarga batafsil ma'lumotlar berib borish lozimligini uqtiradi.

Keltirilgan ta'riflarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyatida

²Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. / Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2005. 11-bet.

³ Adizov A.J. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish / Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.- T.: DJQA, 2004. 14- bet.

jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lovlar ekanligi e'tirof etilgan. Iqtisodiy qarashlardagi asosiy farq qiluvchi jihat shundan iboratki, ba'zi mualliflar soliqlarning muntazamligini ta'kidlashsa, boshqalari ularning ekvivalentsiz to'lov ekanligini qayd etishgan. Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning daromad soligiga ta'rif berishda soliq solinadigan daromad tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Jismoniy shaxs daromadga ega bo'lib, soliq solinadigan daromadga ega bo'lmasa, ya'ni jismoniy shaxsning daromadi imtiyozga ega soliqqa tortilmaydigan daromadni tashkil etsa, undan daromad soligi undirish xususida gap bo'lishi ham mumkin emas. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi, bu - qonun asosida o'rnatilgan miqdorda va muddatda davlat byudjetiga jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlaridan undiriladigan majburiy to'lovdir.

Professor Malikov T.S. jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning ikki tizimi mavjudligini izohlab beradi⁴:

1. Shedulyar yoki inglizcha tizim. Bunday tizim uzoq davr mobaynida Buyuk Britaniya va dunyoning boshqa mamlakatlarida qo'llanilib kelinyapti. U soliq to'lovchi daromadining jami bo'yicha emas, balki uning qismlari bo'yicha daromad manbaida amalga oshiriladi;

2. Global tizim. Bunda daromad solig'i orqali soliqqa tortish soliq to'lovchining jami daromadi bo'yicha amalga oshiriladi va u G'arb mamlakatlarida asosiy tizim hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat daromad soligi orqali milliy daromad taqsimotini amalga oshiradi. Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi.

⁴ Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya, Darslik/Toshkent Moliya instituti.-Toshkent:"Noshir", 2012, 357-bet.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida jismoniy shaxslar daromadining ish haqidan tashqari dividend, nafaqa, stipendiya, ijara haqi, tomorqa xo'jaligidan oladigan pul tushumi va boshqa shu kabi daromadlari salmogi oshib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, fikrimizcha, avvalo, aholi pul daromadlari sarflanish tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.1.1-jadval

2006-2012 yillarda aholi iul daromadlari sarflanish tarkibining o'zgarishi, (%da)

Ko'rsatkichlar	Iillar						
	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Aholi pul daromadlari jami	100	100	100	100	100	100	100
Tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari	76,9	73,1	74,3	73,5	74,7	71,8	70,7
Majburiy to'lovlar va badallar	7,7	7,7	7,7	6,7	6,5	7,4	7,1
Jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar, valyuta xarid qilish va boshqalar	14,1	17,3	15,7	18,0	17,1	18,1	20,2
Aholi pul qoldig'ining o'sishi	1,3	2,0	2,3	1,8	1,7	2,7	2,0

Manba: O'zbekiston Resublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida (2011-2012 yillar ma'lumotlar berilmaganligi uchun jadvalga kiritilmagan)

1.1.1-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, aholi pul daromadlarining aksariyat qismi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar hissasiga to'g'ri keladi va ushbu ulush 2006-2012 yillarda pasayish tendentsiyasiga ega, ya'ni 2006 yilda jami daromaddagi tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari ulushi 76,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 70,7 foizga teng bo'lgan. Tahlil etilayotgan davrda ushbu ulushning pasayishini ijobiy holat deb baholash mumkin. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, pul daromadlari birinchi navbatda, tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari uchun sarflanadi va ushbu sarf-xarajatlar salmog'ining kamayishi esa, aholi real daromadlari o'sishi bilan sodir bo'ladi. Aholi pul daromadida tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari uchun sarflar ulushining kamayishi hisobiga 2006-2012 yillarda jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar, valyuta xarid qilishning ulushi 6,1 foizga (20,2 - 14,1%), aholi pul qoldig'ining 0,7

foizli punktga o'sishi kuzatilgan. 2006-2012 yillardagi jismoniy shaxslar daromadlari sarflanishining tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiq etilgan yillarda aholining 7-8 foiz xarajatlari soliqlar, majburiy to'lovlar va badallar hissasiga to'g'ri kelgan.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek "Bu sohada erishilgan real raqam va ko'rsatkichlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va o'zgarishlarning samaradorligini yaqqol namoyon etayotganini har birimiz o'zimizga aniq tasavvur qilishimiz lozim.

Hech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012 yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.

2013 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajada oshirish, 2013 yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir.

O'tgan 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.

Ana shu davrda aholining banklardagi omonatlari o'sishi 34,6 foizni tashkil qildi, so'nggi o'n yilda esa 40 barobardan ziyod oshdi. 2012 yilda mamlakatimizdagi barcha investitsiyalarning 20 foizdan ortig'ini aholi investitsiyalari tashkil etgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foizi va eng kam ta'minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012 yilda atigi 8,0

barobarni tashkil etganini alohida ta'kidlashni istardim. Bu jahondagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatimizning samarasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi"⁵.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar xususiyati shundan iboratki, soliqlar jismoniy shaxsning o'zi tomonidan, o'z daromadidan to'lanadi. Soliqlar va yig'imlar bu erda (mehnat haqidan daromad solig'idan tashqari) nahd pulda to'lanadi. Bu erda soli to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi (nazorat qiluvchi) idoralar o'rtasida yuzma-yuz keladigan pul munosabatlari mavjud. Bu munosabatlar jarayonida soliq undiruvchi nihoyatda madaniyatli, xushmuomila bo'lsa, soliq qonunchiligi, soliq munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni (masalan, byudjet xarajatlari tarkibi) yaxshi bilsa soliq idoralari katta muvoffaqiyatga erishadi. Jismoniy shaxslar soliqlari deganda aholining daromadlari, mol-mulki qiymatidan, foydalanayotgan erlari uchun va boshqa hollarda davlat byudjetiga qonun bo'yicha to'lanadigan majburiy to'lovlar tushuniladi.

Jismoniy shaxslar soliqlari bu aholining bir qismi daromadini qayta taqsimlash yo'li bilan markazlashgan pul fondiga jalb qilish usulidir.

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri - bu davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. Olinish manbaiga ko'ra soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi.

Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Moliya yilida soliq

⁵ Islom Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: O'zbekiston, 2013, 18-19-betlar.

solinadigan daromad, mol-mulk, er maydoni, transport vositalari va shu kabi boshqa predmetlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ularga belgilangan soliqlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinsa, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi⁶.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning mohiyati ularni davlat byudjetiga undirishda namoyon bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhlariga bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.

Demak, jismoniy shaxslar soliqlarining mohiyati soliqlarning umumiy mohiyatidan kelib chiqib, ularning nazariy masalalarining asosini tashkil etadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar o'zining xususiyatlariga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan soliqlardan farq qiladi. Xususiyatli jihatlar esa jismoniy shaxslardan soliq undirishning huquqiy mexanizmida o'z ifodasini topgan. Shu bois keyingi paragrafda jismoniy shaxslardan soliq undirishning huquqiy asoslari borasida to'xtalib o'tamiz.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2011 yil yanvar.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, bir tomondan, xodimlarni o'z mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga rag'batlantirishi, ikkinchi tomondan, ish haki darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo'lishga yordam ko'rsatishi, mehnatkashlarning daromadlaridagi tafovut asossiz ravishda katta bo'lishiga olib kelmasligi lozim»⁷.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shklantirishda muhim o'rin egallashi bilan birga bir qator xususiyatlarga ham ega. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- soliqlarni naqd va naqdsiz pul ko'rinishida to'laydi;
- jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni hisoblash majburiyati soliq agentlari va davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan, ularni to'lash esa jismoniy shaxslar zimmasiga yuklatilgan;
- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning ayrimlarini byudjetga tushirish bilan bog'liq muammolar deyarli yo'q (daromad solig'i), ayrimlarini yig'ish esa bir qadar qiyin (mol-mul va er soliqlari).

1.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i moliya munosabatlarining kichik tizimi sifatida, aholi bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni, xususan ularning daromadlaridan bir qismini davlatning markazlashtirilgan fondini tashkil etish munosabatlarini aks ettiradi.

Aholining daromadlaridan undiriladigan daromad solig'i to'g'risida ko'plab olim va iqtisodchilar o'zlarining ilmiy qarashlarida fikrlarini bayon etganlar. Daromad solig'ida progressivlik, soliq to'lovchining eng kam yashash darajasi, oilaviy ahvoli kabi tushunchalar o'z aksini topadi. Daromad solig'ining birinchi

⁷ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998. 360-bet.

shakli yigirmanchi asrning 20-chi yillarida Germaniyada, AQShda, sobiq Itifoqda, ikkinchi ko'rinishi esa Angliyada, Italiyada va qisman Frantsiyada qo'llanilgan⁸.

Daromad solig'ining ustunliklarini aniqlab, K.Eeberg «o'zining g'oyaviyligi jihatidan umumdaromad solig'i barcha soliqlarni ortda qoldiradi, faqat shu soliq shaxsiy munosabatlarni hisobga oladi va soliq to'lovchini to'lov qobiliyatiga qarab soliqqa tortishga imkon beradi⁹»- deb yozgan.

Davlat faoliyat doirasining kengayishi va uning fiskal ehtiyojlarining tez suratlarda o'sishi daromad manbasini bera oladigan epchil soliq tizimini tuzish vazifasini oldinga surdi. Daromad solig'ining tuzilishi soliq stavkalarini zarur holatlarda osongina pasaytirish va ko'tarish imkonini beradi.

Daromad solig'iga o'tilishi iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal qildi, davlatning fiskal ehtiyojini qondirish va jamiyatdagi ijtimoiy tanglikni yumshatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Yigirmanchi asrning boshlariga kelib daromad solig'i va progressiv soliq solish, soliq tizimining guldastasi deb tan olindi. Daromad solig'ining birinchi tajribasi Angliya davlatida amalga oshirildi. U zebu-ziynat tovarlariga uch marotaba oshirilgan soliq ko'rinishida 1798 yilda joriy etildi. U 1802 yilda ko'pchilik ariza va shikoyatlarning tazyiqi ostida bekor qilinadi va 1803 yilda yangi shaklda yana joriy etiladi. Qonunga ko'ra daromadlar 5 toifaga bo'linadi¹⁰, har bir toifadan soliq daromadning o'z manbasidan ushlab qolinish kerak edi. Masalan, er egasidan yoki uy egasidan soliq erni yoki uyni ijaraga beruvchidan ushlab qolinar edi, ijaraga beruvchilar esa soliqni erni va uyni ijaraga oluvchilardan undirar edilar.

Soliqlarning 1803 yilda tuzilgan tizimi daromad solig'ining yigirmanchi asrning yigirmanchi yillaridagi tizimi asosini tashkil etdi. Ushbu soliq 1816 yilda burjua sinflarining qattiq qarshiliklar va tazyiqlari ostida bekor qilindi. Davlat byudjetining tanqisliklari, aholining kamdaromadli qismining to'lovga qobiliyatining yo'qligi Angliya moliya vazirligi ushbu soliqni qayta joriy etishga

⁸ Скрипниченко В.А. Налоги налогообложение. -М.: Питер-Юг. 2010. стр. 45

⁹ Никулина И.В. Общая теория налогообложения. -М.: Эксмо. 2010. стр. 78

¹⁰ Лазарев Н.В. Налоги налогообложение -М.: Феникс. 2009. стр. 95

majbur etdi. Daromad solig'i shunday yashovchan chiqdiki, u hatto Angliyaning hukmdor sinfini o'zining «doimiy byudjet a'zosi» deb tan olishga majbur etdi. Natijada daromad solig'i o'zining byudjet daromadlaridagi avvalgi 6% lik ulushidan 1910 yilda 20,5% lik salmoqqa ega bo'ldi.

Prussiyada daromad solig'i shaxsiy soliqqa tortishdan rivojlandi. Qishloq joylaridagi 12 yoshdan katta yashovchilar uchun yagona stavkadagi shaxsiy soliq 1806-1807 yillarda o'rnatilgan edi. Germaniya Angliyadan farqli o'laroq daromad solig'ining shaxsiylik xususiyatini saqlab qoldi. Bunda butun daromadni soliq to'lovchining o'zida yig'ib soliqqa tortishga harakat qilinar edi. Bu erdan daromadlarni deklaratsiyalashning muhim ahamiyati kelib chiqadi.

Daromad solig'i doimiy xarakterga ega bo'lib qolishi uchun Angliya davlatiga 40 yil kerak bo'ldi. Frantsiya esa 1848-1914 yillar ichida ushbu soliqdan ellikka yaqin qonun loyihasiga ega bo'ldi. AQShda esa daromad solig'ining joriy etilishi 1862 yildan 1913 yilgacha muhokama etildi. Rossiyada esa daromad solig'i borasidagi savol yuz yillik tarixga egadir.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning doimiy o'zgarib va isloh qilinib borilishi, moliyaviy fondlarni tuzish usullarini ham mutlaqo o'zgartirib yubordi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig'i va umuman aholidan olinadigan boshqa soliqlar muhim rol o'ynaydi.

Demak, aholidan olinadigan daromad solig'i fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat shu yo'l bilan milliy daromad taqsimotini amalga oshiradi. Daromad solig'i jismoniy shaxslar faoliyatining turli sohalaridan olinadigan shaxsiy daromadning bir qismini qayta taqsimlash vositalaridan biri bo'lib maydonga chiqadi. U yangi qiymatni qayta taqsimlash jarayonida ishtirok etib, takror ishlab chiqarish yagona jarayonining bir qismi, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi. Soliq

munosabatlariga ayirboshlash sohasi va xizmat ko'rsatish sohasi katta ta'sir kkrsatadi – umuman, ular hosila, ikkilamchi xususiyatga egadir.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq yordamida milliy daromadni taqsimlashda davlatning, shu jumladan mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismini o'zlashtirilishi ta'min etiladi¹¹. Milliy daromadning majburiy ravishda safarbar qilingan bu qismi davlat moliya resurslarining bir qismiga, uning hayotiy faoliyatining asosiga aylanadi.

Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (barcha soliqlar kabi) ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi: ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi. Aholidan olinadigan daromad solig'ining manbai shu aholining iste'mol fondidir yoki taqsimlash jarayonlarini hisobga olganda esa – milliy daromadning bir qismidir.

Shunday qilib, aholi daromad solig'ining zaruriyati ijtimoiy manfaatlar ustunligida namoyon bo'lmoqda. Buning ma'nosi shuki, daromad solig'idan foydalanish aholining nominal pul va real daromadlari darajasini muayyan tarzda tartibga solish zarurligi bilan bog'liqdir. U mehnat natijalari bilan unga haq to'lash o'rtasidagi muvofiqlikni o'zgartirmasdan turib aholining pirovard daromadlari miqdorini o'zgartirish imkonini beradi. Daromad solig'i orqali aholining pirovard daromadlarini shakllantirish, ishlab chiqarish va iste'mol xususiyatlarini ta'riflab beradigan turli ob'ektiv hamda sub'ektiv omillarning ishtirok etishi vositasida amalga oshirilishi mumkin. Bu omillarning xilma-xilligi daromadlarning (shu jumladan ish haqini) boshqa manbalari miqdorini tabaqalashtirish tizimi orqali to'liq hisobga olib bo'lmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i asosan aholining pirovard pul daromadlari darajasiga ta'sir qiladi, shu bilan birga davlat uni olinadigan daromadlardan yanada maesadga muvofiq foydalanish uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida ishga soladi. Daromad solig'i tufayli daromadlarning, avvalo yuqori daromadlarning bir qismi aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bklgan

¹¹ Виварец А.Д., Майбуров И.А. Налоги налогообложение. -М.: Юнити-Дана. 2009. стр. 110

toifalari foydasiga va umuman jamiyat manfaatlari yo'lida qayta taqsimlash sodir bo'ladi. Daromadlardagi tengsizlik darajasi ma'lum darajada qisqaradi.

Davlat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliqqa tortishning makroiqtisodiy vositasi orqali aholining daromadlarini qayta taqsimlashda tartibga soluvchilik va rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarar ekan, iste'mol fondini tabaqalashtirilgan chegaralarga qarab yuzaga chiqayotgan har qanday ijtimoiy muammolarni har tomonlama o'ylab yondoshuvi va aholining daromadlarini turli manfaatlardan kelib chiqqan holda oqilona tartibga solib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan iqtisodiy munosabatlarning qayta qurish jarayonlari bozorga o'tish asosida xo'jalik yuritishning turli shakllarini avj oldirishga va buni natijasi o'laroq aholining pul daromadlari mehnatga haq to'lash va boshqa daromadlarning o'sishi hisobiga ortishiga yordam bermoqda. Aholining daromadlar bo'yicha iqtisodiy jihatdan muqarrar ravishda tabaqalanishi respublikadagi umumiy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga hamisha ham ijobiy ta'sir ko'rsatavermaydi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining manbai ham zarur, ham qo'shimcha mahsulot mahsuli bo'lishi mumkin. Davlat, aktsiyadorlik, kooperativ va xususiy korxonalaridagi ishlab chiqarish faoliyatini natijalariga qarab to'lanadigan ish haqidan olinadigan soliq zarur mahsulotning bir qismidir.

Iktisodiyotning yakka tartibdagi (oilaviy) sektori daromadidan olinadigan soliqning mohiyati shu jarayonda namoyon bo'ladi. Ishchilar va xizmatchilarga to'lanadigan, korxona tomonidan foyda hisobiga yaratiladigan mukofotlarga to'g'ri keladigan daromad solig'ining bir qismi o'z mazmuniga ko'ra, qo'shimcha mahsulot mahsulidir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjetining xazinasini asosiy manbalaridan bo'lib, u orqali umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan zaruriy chora-tadbirlarni moliyalashtirishga etarlicha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa davlatning jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda namoyon bo'ladigan funktsiyalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning naqadar zarurligidan dalolat beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yuqorida zikr qilib o'tganimizdek, shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish mushkulroq. Chunki ushbu soliq har bir soliq to'lovchi sub'ektining hayotida muhim rol o'ynaydi.

Respublikamiz iqtisodiyotida unchalik ahamiyat kasb etmaydigan soliqlar ham mavjudki, ularni aholi daromad solig'i to'lashdan qolgan daromadlari hisobidan to'laydilar. Bularga mol-mulk solig'i yoki turar-joylarni majburiy sug'urtalash uchun sug'urta badali va hokozolar misol bo'la oladi.

Yuqoridagilardan ayon bo'ldiki, jismoniy shaxslarning daromad solig'i tizimi byudjetning asosiy manbalaridan biri sifatida ob'ektiv zarur xususiyatga egadir. Ushbu soliqning ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarbligi va ahamiyati oshib boradi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning aholi umumiy tarkibidagi salmog'i va ular daromad darajalarining oshib borishi shuni taqozo qiladi va keltirib chiqaradi. Albatta tadbirkorlar sinfining paydo b'olib ular safi tobora kengayib borishi, daromadlarining oshib borishi degani, jismoniy shaxslarning ushbu qatlamidan o'z-o'zidan daromad solig'i tushumi ko'payib qoladi degan gap emas. Bu erda yana bir omil - bozor iqtisodi talablariga javob bera oladigan, jismoniy shaxslarni ishlab topgan daromadlarini manba'idan qat'iy nazar progressiv va adolatli tarzda soliqqa tortilishini ta'minlashi kerak bo'lgan bir omil mavjudki, u soliqqa tortishning mexanizmi bo'lib, o'z ichiga jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda huquqiy va uslubiy asoslarni qamrab oladi.

1.3.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning ahamiyati

Ma'lumki, jismoniy shaxslar mehnat faoliyati evaziga daromad olish imkoniyatiga egadirlar. Daromadlar turli manbaalardan tashkil etilishi, ularning daromadlariga nisbatan chegaralangan soliq munosabatlarini joriy etilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat byudjet daromadlarini

oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balkim keng xalq ommasining turmush darajasini, daromad to'lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog'i lozim.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i respublika byudjetiga yo'naltirilib, umumdavlat soliqlari toifasiga kiradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining VI bo'limi, 29-bobi, 167-196 moddalari asosida undiriladi va huquqiy tartibga solinadi.

Soliq kodeksining 167-moddasiga muvofiq, soliqni to'lovchilar bo'lib, soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadilar.

Soliq solish ob'ekti bo'lib, quyidagi daromadlar hisoblanadi:


- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.


Buni quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin:



1.3.1-rasm. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi¹²

¹² www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi asosida shakllantirilgan

Soliq Kodeksining 172-moddasiga muvofiq ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi.



1.3.2-rasm. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari¹³

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

- predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga (Soliq Kodeksning 169-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan daromadlar bundan mustasno) to'lovlar;
- yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;
- O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot;

¹³ www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi asosida shakllantirilgan.

2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;

4) ta'tilga qo'shimcha haqlar;

5) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;

6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov.

7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni olish narxi va realizatsiya qilish narxi, olish narxi bo'lmagan taqdirda esa, inventarizatsiya qiymati va realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi farq daromad deb e'tirof etiladi;

5) sanoat mulki ob'ektlariga, selektsiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) royalti;

8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi.

Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

Soliq to'lovchi tomonidan yuridik shaxsdan moddiy naf tarzida olingan daromadlar, agar Soliq Kodeksi 171-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagilardir;

1) yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, shu jumladan:

jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash;

kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash;

yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo'lgan boshqa xarajatlari;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;

3) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) Soliq koedksining 171 moddasining ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy tafovut;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) ish beruvchi tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to'lovchi yuridik shaxsdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olgan taqdirda, ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati ularni olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jismoniy shaxs yuridik shaxsdan aktsiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olsa, bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatida aktsiz solig'ining va qo'shilgan qiymat solig'ining tegishli summasi hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;
- 2) stipendiyalar;
- 3) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;
- 4) donorlik uchun pul mukofotlari;
- 5) alimentlar;
- 6) hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;
- 7) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;
- 8) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;
- 9) yutuqlar;
- 10) grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar;
- 11) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;
- 12) yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;
- 13) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

14) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

15) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

16) moddiy yordam tariqasida:

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar;

xodimga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast etganligi bilan bog'liq to'lovlar;

favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan to'lovlar;

maqsadli xususiyatga ega bo'lgan hamda xodimlar bilan yuz bergan shaxsiy tusdagi voqealar, hodisalar va tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan hamda bajariladigan ish natijalariga bog'liq bo'lmagan to'lovlar;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlar.

17) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

18) ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan to'lovlar;

19) sug'urta to'voni summalari;

20) ma'naviy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha pul to'lovlari.

Iqtisodiy faoliyatning taraqqiyoti doimiy sur'atda rag'batlantirishni taqozo etadi. Amaliyotda iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish iqtisodiy dastaklar majmui yordamida amalga oshiriladi, xususan, ular tarkibida soliq imtiyozlari alohida o'rin tutadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish sharoitida, boshqa moliyaviy dastaklar bilan bir qatorda, soliq imtiyozlariga alohida o'rin berilayapti. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida soliq imtiyozlariga Inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishning muhim omillaridan biri sifatida

qaralayapti. Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq.

Iqtisodiy dastak sifatida soliq imtiyozlariga shunday muhim vazifa yuklatilgan ekan, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning yo'llaridan biri ularni takomillashtirishdir.

Fikrimizcha, ushbu masalani mantiqning tegishli qoidalariga qat'iy rioya etgan holda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq: a) ta'rifni berish (ishlab chiqish) qoidalari yoki tartiblariga qat'iy rioya etish; b) «imtiyoz» so'zining qanday ma'nolarda ishlatilishi mumkinligini aniqlash; v) ularning nimaga qaratilganligini aks ettirish; g) soliq imtiyozlariga xos bo'lgan majburiy xarakterli belgilar (xususiyatlar, xossalarni ifodalash. Oxirgi holat soliq imtiyozlarining mohiyatini aniqlashda printsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bizningcha, soliq imtiyozlariga xos bo'lgan belgilar quyidagilardan iborat: a) o'rnatilishining qonuniyligi; b) individual xarakterga ega emasligi; v) diskriminatsion xarakterda bo'lmasligi; g) ixtiyoriyligi; d) qo'llash muddatlarining mavjud emasligi; e) soliq afzallik (qulaylik)larini yaratish.


Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, soliq imtiyozlarining mohiyatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Soliq yukining og'irligini kamaytirish va soliq to'lovchilarning yanada samarali faoliyat ko'rsatishlarini rag'batlantirish maqsadida boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga o'rnatilishining qonuniyligi, individual va diskriminatsion xarakterda bo'lmasligi, qo'llanilishining ixtiyoriyligi va muddatsizligi hamda soliq afzallik (qulaylik)larini yaratish tarzida berilib, soliq majburiyatlarini kamaytiruvchi engilliklarga soliq imtiyozlari deyiladi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, soliq imtiyozlarini takomillashtirish masalasini oqilona hal etish, ko'p jihatdan, ularning qanday printsiplarga asoslanib tashkil qilinganligiga bog'liq.

Soliq imtiyozlarini klassifikatsiya qilishda dastlab ularni klassifikatsiyalanish belgilarini aniqlash lozim. Fikrimizcha, bunday belgilar qatoriga quyidagilarni

kiritish mumkin: a) soliq imtiyozlarini taqdim etish shakli; b) soliqqa tortish elementlariga bog'liqlik darajasi; v) soliq imtiyozlarini taqdim etish sub'ektlariga qarab; g) soliq imtiyozlarini boshqarish darajasining tegishligiga ko'ra.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, ishlab chiqilgan rasmdan ko'rinishicha, soliq imtiyozlarini klassifikatsiyalash ularning nihoyatda xilma-xilligini aniqlash imkonini beradi.



1.3.3-rasm¹⁴. Soliq imtiyozlarini tasniflash belgilari

Amaldagi tartibga muvofiq taqdim etilgan va qo'llanilishi lozim bo'lgan soliq imtiyozlari dastavval optimal bo'lmog'i lozim. Soliq imtiyozlarining maqsadi va ularning oldiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi aynan shu jihatlarga bog'liq bo'ladi. Soliq imtiyozlari optimal tarzda taqdim etilgan bo'lsa, boshqa shart-sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ularni qo'llash natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishiladi va belgilangan vazifalar to'liq amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, soliq imtiyozlarining mukammalligiga ularni tako- millashtirish

¹⁴ Yuldashev O. T. O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. 2011 y. 10-bet.

jarayonida erishiladi. Ya'ni, «soliq imtiyozlarining mukammalligi» yoki «soliq imtiyozlarini takomillashtirish» imtiyoz oluvchi (soliq to'lovchi) va imtiyoz beruvchi (davlat, davlat byudjeti, soliqni undiruvchi)larning manfaatlariga zid kelmasligi kerak. Eng avvalo, ana shu muvozanatning ta'minlanishiga erishilmas ekan, «soliq imtiyozlarining mukammalligi» yoki «soliq imtiyozlarini takomillashtirish» xususida gapirish o'zining ma'nosiga ega bo'lmaydi.

Soliq imtiyozlarini takomillashtirishda ularni amalga oshirish mezonlari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Bizningcha, soliq imtiyozlarini takomillashtirish mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: a) soliq imtiyozlarini tashkil etish va takomillashtirish printsiplariga qat'iy rioya etish; b) taqdim etilgan soliq imtiyozlari pirovard natijada, byudjet daromadlari qisqarishiga olib kelmasligi; v) soliq imtiyozlari soliq to'lovchida boqimandalik kayfiyatini tug'dirmasligi va aksincha, uni yanada samarali faoliyat ko'rsatishga undashi; g) soliq to'lovchilarning bir guruhiga nisbatan soliq imtiyozlari berilishi ularning boshqa guruhlari hisobidan amalga oshirilmasligi; d) berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish ixtiyoriylik xarakteriga ega bo'lsa-da, ulardan maksimal darajada foydalanish kerakligi; e) soliq imtiyozlari, ularning berilishi va amaliyotda qo'llanilishi soliqqa tortish jarayonlarini murakkablashtirmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarining amaldagi taqdim etilish holati o'rganishda, mamlakatimizda soliq imtiyozlarining amaldagi taqdim etilish holatini baholashda, avvalo, quyidagilarga e'tibor bermoq lozim:

a) soliq qonunchiligi; b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarining soliqlar va soliq imtiyozlariga daxldor bo'lgan qismlari; v) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarining soliqlar va soliq imtiyozlariga tegishli bandlari; g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tegishli yo'riqnomalari; d) soliqlar va soliq imtiyozlariga aloqador bo'lgan boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

Alohida olingan mamlakat miqyosida soliq imtiyozlarining taqdim etilish holatiga baho berishda, ushbu mamlakatning tegishli soliq qonunchiligi, ya'ni,

Soliq kodeksi asos sifatida xizmat qilishi kerak.

Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash quyidagi maqsadlarda olib boriladi:

- Soliq imtiyozlarining natijalarini monitoring qilish;
- Soliq imtiyozlarini amal qilishini tugatish yoki ularning amal qilish muddatlarini uzaytirish.

Soliq imtiyozlarini baholash soliq imtiyozlarini optimallashtirish va soliq imtiyozlari orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ob'ektlarni optimal tanlashni ta'minlash kerak.

Soliq imtiyozlarini baholash uchun quyidagi kriteriyalar qo'llaniladi:

- ijtimoiy samaradorlik;
- iqtisodiy samaradorlik;
- byudjet samaradorligi.



1.3.4-rasm¹⁵. Soliq imtiyozlarini baholash kriteriyalari

Ijtimoiy samaradorlik – soliq to'lovchilarga tadbirlar natijasida aholi hayot darajasini oshirishga qaratilgan xizmatlar sifati va hajmining o'zgarishi baholash.

Belgilangan soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligi quyidagi maqsadlarning biriga erishilganda ijobiy deb baholanadi:

- Ish haqining o'sishi;
- Yangi ish joylarining yaratilish;
- Mehnat sharoitlarining yaxshilanishi;
- Aholining nochor qatlamlariga xizmatlarni to'lash uchun imtiyozli sharoitlar yaratish.

¹⁵ www.law7.ru

Agar joriy etilgan imtiyozlar yuqoridagi sanab o'tilgan maqsadlarning biriga erishilmasa amalga kiritilgan soliq imtiyozlari salbiy deb baholanadi.

Iqtisodiy samaradorlik – soliq imtiyozlari joriy etilgan soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyati moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini baholash hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlari joriy etilganda soliq imtiyozlari ularning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini (daromadi, rentabellik, mahsulot tannarxining pasayishi, mahsulot assortimentlarining kengayishi) ijobiy ta'minlasa iqtisodiy samaradorlik ijobiy baholanadi.

Soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlari joriy etilganda soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati bo'lgan soliq to'lovchilarda ularning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini (daromadi, rentabellik, mahsulot tannarxining pasayishi, mahsulot assortimentlarining kengayishi) usishiga olib kelmasa, iqtisodiy samaradorlik salbiy baholanadi.

Byudjet samaradorligi – byudjet daromadlari va xarajatlariga ta'siri nuqtai nazardan soliq imtiyozlari taqdim etilgan soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyati natijalarini baholash hisoblanadi.

Soliq imtiyozlari taqdim etilgan soliq to'lovchilardan byudjetga kelib tushgan qo'shimcha haqiqiy soliq tushumlari summasi soliq imtiyozi joriy etilgan davrdagi summaga teng bo'lsa yoki undan oshsa byudjet samaradorligi ijobiy baholanadi.

Soliq imtiyozlari taqdim etilgan soliq to'lovchilardan byudjetga kelib tushgan qo'shimcha haqiqiy soliq tushumlari summasi soliq imtiyozi joriy etilgan davrdagi summadan kam bo'lsa byudjet samaradorligi salbiy baholanadi.

Aholining nochor qatlamlaridagi (ijtimoiy himoyalanmagan) soliq to'lovchilarga joriy etilgan soliq imtiyozlari samaradorligi baholanmaydi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi yakunida quyidagi xulosalarni beramiz:

- Davlatimiz tomonidan aholi real daromadlarini oshirish maqsadida soliq jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish imtiyozlarni ko'paytirish natijasida aholining bugungi kunda real daromadlari oshib bormoqda;

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, jumladan, soliq sohasidagi islohotlar iqtisodiy o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning umumiqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari aholining turmush darajasini oshirishga hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishini rag'batlantirishga xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi;

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Daromad solig'i tufayli, yuqori daromadlarning bir qismi aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lgan toifalari foydasiga va umuman, jamiyat manfaatlari yo'lida qayta taqsimlanadi, pirovard natijada esa, daromadlardagi tengsizlik ma'lum darajada qisqarishiga erishiladi;

- Soliq imtiyozlarini baholash uchun quyidagi kriteriyalarni qo'llas maqsadga muvofiq:

- ijtimoiy samaradorlik;
- iqtisodiy samaradorlik;
- byudjet samaradorligi.

2-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning amaldagi holati tahlili

2.1. Jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini hisoblash tartibining amaldagi holati tahlili

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini, shuningdek eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1 yanvaridagi holati inobatga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshirganda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlaridan to'lanadigan soliq stavkalarining muntazam ravishda pasaytirilib borishi O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi islohotlarning eng e'tiborli jihatlaridan

biri hisoblanadi.

1998-1999 yillarda jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq besh pog'onali 15 %, 25 %, 35 %, 40 % va 45 % shkala bo'yicha olingan bo'lsa, 2001-2010 yillardan boshlab uchta pog'onali shkala bo'yicha undiriladi. 2008 yilda jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari quyi stavka 13 %, o'rta stavka 18 % va yuqori stavka 25 %, 2009 yilda esa jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari quyi stavka 12 %, o'rta stavka 17 % va yuqori stavka 22 %, 2010 yilda jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari quyi stavka 11 %, o'rta stavka 17 % va yuqori stavka 22 % belgilangan bo'lsa, 2011 yildan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari quyi stavka 10 %, o'rta stavka 16 % va yuqori stavka 22 % gacha pasaytirildi. 2012 yilda esa birinchi shkaladagi quyi savka 9%, 2013 yildan boshlab 8 foiz qilib belgilandi.

2.1.1-jadval

2001-2013 yillarda daromad solig'ining stavkalari (foizda)

Eng kam oylik ish haqining miqdori	2001 yil	2002 yil	2003 yil	2004 yil	2005 yil	2006 yil	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 Yil	2013 yil
1 barobar	12	13	13	13	13	13	13	13	12	11	10	9	8
2 barobar													
3 barobar													
4 barobar													
5 barobar	25	23	22	21	21	20	18	18	17	17	16	16	16
6 barobar													
7 barobar													
8 barobar													
9 barobar	36	33	32	30	30	29	25	25	22	22	22	22	22
10 barobar													
10 barobaridan yuqori													

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida shakllantirilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ- 1887-sonli qaroriga muvofiq 2013 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari quyi pog'ona eng kam ish haqining besh baravarigacha daromad summasining 8

foizi, o'rta pog'onada eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summadan 16 foizi, yuqori pog'ona eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda o'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summadan 22 foizi miqdorida belgilangan.

2.1.2-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq solish tartibiga kiritilgan o'zgarishlar

	2010 yil soliq stavkasi		2011 yil soliq stavkasi	2012 yil soliq stavkasi	2013 yil soliq stavkasi
Eng kam ish haqining olti baravarigacha miqdorda	10 %	Eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	10 %	9 %	8 %
Eng kam ish haqining olti baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	16 %	Eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	16 %	16 %	16 %
Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	22 %	Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	22 %	22 %	22 %

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida shakllantirilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ- 1449-sonli qaroriga muvofiq 2013 yilda aholi daromadlariga soliq yukini kamaytirish va ularning xarid qobiliyatini oshirish maqsadida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi soliq solishning birinchi shkalasi bo'yicha 9 foizdan 8 foizga pasaytirildi.

2013 yilga davlatimiz soliq va byudjet siyosati soliq yukini yanada kamaytirishga, investitsiya va ishchanlik muhitini yaxshilashga, iqtisodiyotni modernizatsiyalashni rag'batlantirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, soliq

ma'muriyatchiligini takomillashtirishga, shuningdek, makroiqtisodiy mutanosiblikni va aholi turmush farovonligi o'sishini ta'minlashga qaratilgan.

Soliq yukini yanada qisqartirish chora-tadbirlaridan biri sifatida jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan eng kam soliq stavkasini birinchi shkala bo'yicha 9 foizdan 8 foizga kamaytirish hisobiga jismoniy shaxslar tasarrufida 186 milliard so'm qolishi imkonini beradi¹⁶.

2009 yil yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, iyul oylarida eng kam ish haqi miqdori 28040 so'mni, avgust, sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida eng kam ish haqi miqdori 33645 so'mni, dekabr oyida eng kam ish haqi miqdori 37680 so'mni, 2010 yil yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, iyul oylarida eng kam ish haqi miqdori 37680 so'mni, avgust, sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida eng kam ish haqi miqdori 45 215 so'mni, dekabr oyida eng kam ish haqi miqdori 49 735 so'mni, 2011 yil avgust-oktyabr oylarida eng kam ish haqi miqdori 57200 so'mni, 2011 yil dekabr va 2012 yilning iyul oylarida eng kam ish haqi miqdori 62920 so'mni, 2012 yil avgust-noyabr oylarida eng kam ish haqi miqdori 72355 so'mni, 2012 yilning dekabridan hozirgi kungacha eng kam ish haqi miqdori 79590 so'mni tashkil etadi.

2.1.3-Jadval

1993-2013 yillarda eng kam ish haqining miqdorlari

Oylar Yillar	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1993 y	2500	2500	2500	3000	3000	7500	11250	11250	13500	13500	16200	24300
1994 y	30	30	45	45	45	70	70	100	100	100	100	100
1995 y	100	100	150	150	150	150	150	150	250	250	250	250
1996 y	250	250	250	400	400	400	400	400	550	550	550	600
1997 y	600	600	600	600	600	600	750	750	750	750	750	750
1998 y	750	750	750	750	750	750	1100	1100	1100	1100	1100	1100
1999 y	1320	1320	1320	1320	1320	1320	1320	1750	1750	1750	1750	1750
2000 y	1750	1750	1750	1750	1750	1750	1750	2450	2450	2450	2450	2450
2001 y	2450	2450	2450	2450	2450	2450	2450	3430	3430	3430	3430	3430
2002 y	3430	3430	3430	3945	3945	3945	3945	4535	4535	4535	4535	4535
2003 y	4535	4535	4535	4535	5440	5440	5440	5440	5440	5440	5440	5440
2004 y	5440	5440	5440	5440	5440	5440	5440	6530	6530	6530	6530	6530
2005 y	6530	6530	6530	6530	7835	7835	7835	7835	7835	9400	9400	9400
2006 y	9400	9400	9400	9400	9400	9400	10800	10800	10800	10800	12420	12420
2007 y	12420	12420	12420	12420	12420	12420	12420	15525	15525	15525	18630	18630
2008 y	18630	18630	18630	20865	20865	20865	20865	20865	25040	25040	25040	28040
2009 y	28040	28040	28040	28040	28040	28040	28040	33645	33645	33645	33645	37680
2010 y	37680	37680	37680	37680	37 680	37 680	37680	45215	45215	45215	45215	49735
2011 y	49735	49735	49735	49735	49735	49735	49735	57200	57200	57200	62920	62920
2012 y	62920	62920	62920	62920	62920	62920	62920	72355	72355	72355	72355	79590
2013 y	79590	79590	79590	79590	79590							

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari asosida shakllantirildi.

¹⁶ <http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/7693>, Deputatlar 2013 yilgi Davlat byudjetini qabul qildilar. 16.11.2012.

Fuqarolar daromadlarining 1 foizi miqdoridagi summa daromad solig'idan kamaytirilib, ularning jamg'arib boriladigan majburiy pensiya hisob raqamiga qaytarib berish tartibi saqlanib qolindi.

Fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari 6 foiz qilib belgilandi.

2013 yil 1 yanvrdan boshlab soliq stavkasi eng kam ish xaqining yil boshidagi miqdoridan (2013 yil 1 yanvar xolatiga 79590 so'm) kelib chiqib qo'llanilishini nazarda tutuvchi yangi norma kiritildi.

Yuqorida qayd etilgan daromadlarning shakllanishi bilan soliq bazasi shakllanadi va soliq stavkasini qo'llash orqali byudjetga to'lanadigan summa hisoblab topiladi. O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliq progressiv stavkalarda solinib, uch pog'onali tarzda amalga oshiriladi. Buni quyida keltirilayotgan jadvalda ham ko'rish mumkin:

2.1.4-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari miqdori¹⁷

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
Eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	Daromad summasining 8 foizi
Eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	Besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summadan 16 foiz
Eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	O'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summadan 22 foiz

Izoh:

1. Soliqqa tortiladigan daromadlar guruhlar bo'yicha soliqqa tortish shkalasi yil boshida belgilangan eng kam ish haqidan kelib chiqib aniqlanadi - 2013 yil 1 yanvar xolatiga (79590 so'm) va yil davomida eng kam ish haqining o'zagarganda qayta ko'rib qichilmaydi.

1. Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq summasini hisoblash maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqi summasi).

2. Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq summasi, fuqarolarning shaxsiy jamjarib boriladigan pensiya hisobvarajiga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslarning daromad soliji solinadigan daromadlaridan 1 foizi miqdorida hisoblanadigan oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

¹⁷ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-son qarori

Biz quyidagi misollarda jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini hisobga olgan holda jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz.

1-vaziyat. Daromaddan eng kam ish haqining 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadigan imtiyoz qo'llanilgan holda jismoniy shaxslar daromad solig'i hisob-kitobi quyidagi hisoblanadi.

Soliq Kodeksining 180-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ushbu imtiyozga ega bo'lgan fuqarolarning (masalan, 16 yoshdan oshmagan ikki va undan ortiq bolalari bo'lgan yolg'iz onalar) jami daromadidan har oyda eng kam ish haqining 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

Yanvar–aprel oylarida xodimning ish haqi 880 000 so'mni, jami daromadi esa – 3 520 000 (880 000 + 880 000 + 880 000 + 880 000) so'mni tashkil etdi.

Yanvar–aprel oylari uchun soliq solinmaydigan daromad (79 590 + 79 590 + 79 590 + 79 590) x 4 = 1 273 440 so'mni tashkil qiladi.

Soliq solinadigan daromad: 3 520 000 – 1 273 440 = 2 246 560 so'mga teng.

Yanvar–aprel oylaridagi jismoniy shaxslar daromad solig'i summasini aniqlash uchun eng kam ish haqining 5 baravariga teng daromadlardan olingan soliq summasiga 16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromaddan hisoblangan summani qo'shamiz:

$127\,344 + (2\,246\,560 - 1\,591\,800) \times 16\% = 127\,344 + 654\,760 \times 16\% = 127\,344 + 104\,761,6 = 232\,105,6$ so'm.

Yanvar–mart oylarida 174 079,2 so'm soliq ushlab qolingani. Aprel oyi uchun 58 026,4 (232 105,6 – 174 079,2) so'm to'lanishi lozim.

Yil boshidan buyon Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga yo'naltiriladigan majburiy badallar summasi $2246560 \times 1\% = 22465,6$ so'mni tashkil qiladi.

Yanvar–mart oyida Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga 16 849,2 so'm o'tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 5616,4 (22465,6 – 16849,2) so'mni tashkil qiladi.

Byudjetga: $58026,4 - 5616,4 = 52410$ so'm jismoniy shaxslar daromad solig'i o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari $880\,000 \times 6\% = 52\,800$ so'mni tashkil qiladi.

Xodim qo'liga $880\,000 - 58\,026,4 - 52\,800 = 769\,173,6$ so'm ish haqi oladi.

2-vaziyat. Endi moddiy yordam olish tarzida imtiyozni hisobga olgan holda jismoniy shaxslar daromad solig'i hisob-kitobini ko'ramiz.

Soliq kodeksining 179-moddasining 1-bandiga ko'ra bir yil davomida eng kam ish haqining 12 baravarigacha miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga jismoniy shaxslar daromad solig'i solinmaydi ($79\,590 \times 12 = 955\,080$ so'm).

Xodimning yanvar–aprel oylaridagi oylik ish haqi $600\,000$ so'mni tashkil qiladi. Yanvar oyida unga

$1\,100\,000$ so'm moddiy yordam to'langan. Yil boshidan jami daromad $3\,500\,000$ ($600\,000 + 1\,100\,000 + 600\,000 + 600\,000 + 600\,000$) so'mni tashkil qiladi.

Soliq solinadigan daromad: $3\,500\,000 - (79\,590 \times 12) = 3\,500\,000 - 955\,080 = 2\,544\,920$ so'mga teng.

Yil boshidan jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqining 5 baravariga teng bo'lgan daromaddan olinadigan soliqqa 16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromaddan hisoblangan summani qo'shamiz:

$127\,344 + (2\,544\,920 - 1\,591\,800) \times 16\% = 127\,344 + 953\,120 \times 16\% = 127\,344 + 152\,499,2 = 279\,843,2$ so'm.

Yanvar–mart oylarida $215\,679,2$ so'm soliq ushlab qolingani. Aprel oyi uchun esa $64\,164$ ($279\,843,2 - 215\,679,2$) so'm ushlab qolinishi lozim.

Yil boshidan buyon Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy badallar summasi $2\,544\,920 \times 1\% = 25\,449,2$ so'mni tashkil qiladi.

Yanvar–mart oylarida Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga $19\,449,2$ so'm o'tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar $6\,000$ ($25\,449,2 - 19\,449,2$) so'mni tashkil qiladi.

Aprel oyi uchun byudjetga $64\,164 - 6\,000 = 58\,164$ so'm jismoniy shaxslar daromad solig'i o'tkaziladi.

Majburiy sug'urta badallari $600\,000 \times 6\% = 36\,000$ so'mni tashkil qiladi.

Xodim qo'liga $600\,000 - 64\,164 - 36\,000 = 499\,836$ so'm ish haqi oladi.

3-vaziyat. Qimmatbaho sovg'a olish tarzida imtiyozni hisobga olgan holda jismoniy shaxslar daromad solig'i hisob-kitobi quyidachiga bo'ladi.

Soliq kodeksining 179-moddasining 14-bandiga ko'ra bir yil mobaynida yuridik shaxslardan eng kam ish haqining 6 baravari miqdorigacha bo'lgan summada olingan sovg'alarining qiymatiga soliq solinmaydi ($79\,590 \times 6 = 477\,540$ so'm).

Xodimning yanvar–aprel oylaridagi oylik ish haqi $600\,000$ so'mni tashkil qiladi. Yanvar oyida unga qiymati $500\,000$ so'm bo'lgan choy servizi sovg'a qilingan. Yil boshidan buyon jami daromad $2\,900\,000$

$(600\,000 + 500\,000 + 600\,000 + 600\,000 + 600\,000)$ so'mga teng.

Soliq solinadigan daromad $2\,900\,000 - 477\,540 = 2\,422\,460$ so'mni tashkil etadi.

Yil boshidan jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblayotganda eng kam ish haqining 5 baravarigacha bo'lgan daromaddan olinadigan soliq summasiga 16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromaddan hisoblangan summani qo'shamiz $127\,344 + (2\,422\,460 - 1\,591\,800) \times 16\% = 127\,344 + 830\,660 \times 16\% = 127\,344 + 132\,905,6 = 260\,249,6$ so'm.

Yanvar–mart oylarida $196\,085,6$ so'm soliq ushlab qoling. Aprel oyi uchun esa $64\,164 (260\,249,6 - 196\,085,6)$ so'm to'lanishi lozim.

Yil boshidan Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy badallarsummasi: $2\,422\,460 \times 1\% = 24\,224,6$ so'mni tashkil etadi.

Yanvar–mart oylarida Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga $18\,224,6$ so'm o'tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar $6\,000 (24\,224,6 - 18\,224,6)$ so'mni tashkil qiladi.

Byudjetga $64\,164 - 6\,000 = 58\,164$ so'm jismoniy shaxslar daromad solig'i o'tkazamiz.

Aprel oyi uchun majburiy sug'urta badallari $600\,000 \times 6\% = 36\,000$ so'mni tashkil qiladi.

Xodim qo'liga $600\,000 - 64\,164 - 36\,000 = 499\,836$ so'm ish haqi oladi.

4-vaziyat. Bir nechta imtiyozni hisobga olgan holda: har oyda daromaddan eng kam ish haqining 4 baravariga teng summani chegirish, moddiy yordam va qimmatbaho sovg'a olinganda jismoniy shaxslar daromad solig'i hisob-kitobini ko'rib qichamiz.

Quyidagilarga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 179-moddasining 1-bandiga muvofiq, bir yil davomida eng kam ish haqining 12 baravarigacha miqdorda beriladigan moddiy yordam summasiga jismoniy shaxslar daromad solig'i solinmaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 179-moddasining 14-bandiga ko'ra yuridik shaxslardan bir yil mobaynida eng kam ish haqining 6 baravari miqdorigacha olingan sovg'alarning qiymatiga jismoniy shaxslar daromad solig'i solinmaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 180-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan xodimning jami daromadidan har oyda eng kam ish haqi miqdorining 4 baravariga teng summa chiqarib tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 180-moddasiga ko'ra imtiyozga ega bo'lgan xodimning oylik ish haqi yanvar–aprel oylarida 700 000 so'mni tashkil qildi. Yanvar oyida unga 1 000 000 so'm moddiy yordam ko'rsatilgan va 600 000 so'mlik qiymatga ega sovg'a topshirilgan.

Yil boshidan jami daromad 4 400 000 so'mga ($700\,000 + 1\,000\,000 + 600\,000 + 700\,000 + 700\,000 + 700\,000$) teng.

Soliq solinadigan daromadni aniqlaymiz:

$4\,400\,000 - (79\,590 \times 12) - (79\,590 \times 6) - (318\,360 \times 4) = 1\,693\,940$ so'm.

Yil boshidan jismoniy shaxslar daromad solig'i summasini hisob-kitob qilishda eng kam ish haqining 5 baravariga teng daromadlardan olinadigan soliq

summasiga 16%lik stavka bo'yicha soliq solinadigan daromaddan hisoblangan summani qo'shamiz:

$$127\,344 + (1\,693\,940 - 1\,591\,800) \times 16\% = 127\,344 + 102\,140 \times 16\% = 127\,344 + 16\,342,4 = 143\,686,4 \text{ so'm.}$$

Yanvar–mart oylarida 114 460 so'm soliq ushlab qolingani. Aprel oyi uchun esa 29 226,4 (143 686,4 – 114 460) so'm to'lanishi lozim.

Yil boshidan Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy badallar summasi:

$$1\,693\,940 \times 1\% = 16\,939,4 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Yanvar–mart oylarida Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga 13 123 so'm o'tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 3 816,4 (16 939,4 – 13 123) so'mni tashkil qiladi.

$$\text{Byudjetga: } 29\,226,4 - 3\,816,4 = 25\,410 \text{ so'm soliq o'tkaziladi.}$$

$$\text{Majburiy sug'urta badallari: } 700\,000 \times 6\% = 42\,000 \text{ so'mni tashkil qiladi.}$$

$$\text{Xodim qo'liga: } 700\,000 - 29\,226,4 - 42\,000 = 628\,773,6 \text{ so'm ish haqi oladi.}$$

5-vaziyat. Oliy o'quv yurtida o'qish uchun haq to'lash bo'yicha imtiyozni hisobga olgan holda jismoniy shaxslar daromad solig'i hisob-kitobi quyidagicha amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 179-moddasining 31-bandiga muvofiq fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki 26 yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalariga soliq solinmaydi.

Xodimning yanvar–aprel oylaridagi oylik ish haqi miqdori 700 000 so'mga teng. Uning arizasiga binoan yanvar oyida korxona 2012–2013 o'quv yili uchun 1 500 000 so'm miqdorida o'g'lining institutda o'qishi uchun haq to'ladi. Mazkur mablag'lar yanvar oyidan boshlab to'liq so'ndirilgunga qadar jismoniy shaxsning daromadlaridan ushlab qolinadi.

O'qish uchun to'langan haqni so'ndirish maqsadida xodim ish haqidan har oyda 250 000 so'mdan ushlab qolishga qaror qilindi.

Yanvar–aprel oylari uchun soliq solinadigan daromad 1 800 000 so'mni (2 800 000 – 1 000 000) tashkil qiladi.

Yil boshidan jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisob-kitob qilishda eng kam ish haqining 5 baravariga teng daromadlardan olinadigan soliq summasiga 16%lik stavka bo'yicha hisoblangan soliq summasini qo'shamiz:

$$127\,344 + (1\,800\,000 - 1\,591\,800) \times 16\% = 127\,344 + 208\,200 \times 16\% = 127\,344 + 33\,312 = 160\,656 \text{ so'm.}$$

Yanvar–mart oylarida 120 492 so'm soliq ushlab qolingani. Aprel oyi uchun 40 164 (160 656 – 120 492) so'm to'lanishi lozim.

Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy badallar summasi: $1\,800\,000 \times 1\% = 18\,000$ so'mni tashkil etadi.

Yanvar–mart oylarida Shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga 13 500 so'm o'tkazilgan, aprel oyi uchun ajratmalar 4 500 (18 000 – 13 500) so'mni tashkil qiladi.

Byudjetga o'tkaziladigan jismoniy shaxslar daromad solig'i summasi : $40\,164 - 4\,500 = 35\,664$ so'mga teng.

Majburiy sug'urta badallari: $700\,000 \times 6\% = 42\,000$ so'mni tashkil qiladi.

Soliq, majburiy ajratmalar va xodimga ta'lim olish uchun haq to'lash hisobiga ushlanmalar chegirilganidan keyin xodimga: $700\,000 - 40\,164 - 42\,000 - 250\,000 = 367\,836$ so'm ish haqi to'lanadi.

2.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samardorligining amaldagi holati tahlili

O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 31-bobida soliq bo'yicha imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summalari:

favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari — to'laligicha;

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari — eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;

boshqa hollarda — soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'lmagan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida, uning oila a'zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) sanoat mulki ob'ektlariga va selektsiya yutug'i patentiga patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentni (litsenziyani) ularning amal qilish muddati doirasida, lekin foydalanish boshlangan kundan e'tiboran quyida ko'rsatilgan davrdan ko'p bo'lmagan muddatda sotishdan olgan daromadi summasi:

ixtirolar va selektsiya yutug'idan — besh yil davomida;

sanoat namunasidan — uch yil davomida;

foydali modeldan — ikki yil davomida;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni;

ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida ikki martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno.

12) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan er uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam.

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar,

ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

17) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan — grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo'naltiriladigan summalari, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Ushbu bandeda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

20) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

- 21) olingan alimentlar;
- 22) fuqarolarning sug'urta tovonni sifatida oladigan summolari;
- 23) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;
- 24) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;
- 25) davlat pensiyalari;
- 27) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;
- 28) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summolari;
- 29) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga — yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summolari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;
- 30) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summolari:
- yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;
- «Qishloq qurilish bank» aktsiyadorlik tijorat bankining kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda.


Ushbu bandda ko'rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

31) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalari;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalari.

32) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aktsiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa.



2.2.1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlarning guruhlanishi¹⁸

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik

¹⁸ www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 2013.

va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari — agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalari bo'yicha;

7) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari — ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

8) gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar — ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) ozod qilinadi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud 1941—1945 yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar. Bu imtiyozlarni berish uchun «O'zbekiston Qahramoni» guvohnomasi, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchasi, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlarning orden daftarchasi, urush nogironlarining tegishli urush nogironi guvohnomasi yoxud mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoki boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi, boshqa nogironlarning — Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi asos bo'ladi;

2) xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, 1941—1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, 1941—1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari. Imtiyoz Urush qatnashchisining guvohnomasi asosida, 1941—1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari — Imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

3) Leningrad shahrida 1941 yil 8 sentyabrdan 1944 yil 27 yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar. Imtiyoz ushbu shaxslar qamal davrida Leningrad

shahri korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida beriladi;

4) ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida nogiron bo'lib qolganlar. Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi imtiyozlar berilishi uchun asos bo'ladi;

5) bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) o'n va undan ortiq bolasi bor ayollar. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi mazkur imtiyoz berilishi uchun asos bo'ladi;

7) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan

bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

8) xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shnlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar. Mazkur imtiyozni berish uchun Imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizligi qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligi mudofaa ishlari bo'yicha bo'limlari, harbiy qismlari, harbiy-o'quv yurtlari, korxonalari, muassasalari yoki tashkilotlarining ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

9) Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar. Imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish qatnashchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan, imtiyoz berilishi uchun asos bo'luvchi boshqa hujjatlar asosida beriladi;

10) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

11) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz urning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

12) bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya

guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Soliq Kodeksining 180-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan nazarda tutilgan imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Imtiyozlarga bo'lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar jismoniy shaxs Soliq Kodeksining 180-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan bir nechta asos bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Soliq Kodeksining 180-moddaning **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lmagan taqdirda — yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo'qotilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

Soliq Kodeksining 180-moddaning ikkinchi qismida sanab o'tilgan imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyozni qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini ob'ektimiz hisoblangan Xorazm viloyati Tuyamuyin GES davlat korxonasi bo'yicha hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summolari hamda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan solig'ining ushlab qolingani summolari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlili bilan davom ettiramiz.

2.2.1-jadval

Tuyamuyin GES davlat korxonasi bo'yicha hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summolari hamda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan solig'ining ushlab qolingani summolari to'g'risidagi ma'lumotlar¹⁹

(so'mda)

№	Ko'rsatkichlar :	Satr-lar	To'lovchining ma'lumotlari bo'yicha
1	2	3	4
1.	Yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni, jami (kishi)	001	91
	jumladan: o'rindoshlik bo'yicha (kishi)	002	
	001-satrdan fukarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar	003	91
	001-satrdan asosiy ish joyi bo'yicha jamgari boriladigan pensiya hisobvarakdari ochilgan jismoniy shaxslar	006	91
2.	Soliq davri boshiga karzdorlik:		
2.1	- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sugurta badallarini chegirgan holda jismoniy shaxslarga to'lanadigan daromadlar bo'yicha	007	18788055
2.2	- ShJBPHga badallar chegirilgan hodda jismoniy shaxslardai olinadigan daromad solig'ini to'lash bo'yicha	008	-3077077,18
2.3	- ShJBPHga badallar bo'yicha	009	94137,87
3.	Hisoblangan daromadlarning umumiy summasi, shu jumladan: (Ma'lumotlarning 1-ilovasidagi 01-satri)	010	782645622
3.1	- soliq solishdan ozod kilingan daromadlar (Ma'lumotlarning 2-ilovasidagi 01-satr)	011	63057360
3.2	- soliq solinadigan daromadlar (soliq solinadigan baza) ,	012	719588262
3.3	- mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxslarga ularning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmaydigan moddiy naf tarzida to'lanadigan daromadlar	013	
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi (ShJBPHga badallar chegirilgan holda)	014	88617877
5.	ShJBPHga hisoblangan badallar summasi	015	7382644
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallari chegirilgan holdagi hisoblangan daromadlariing umumiy summasi (010- satr - 014-satr - 015-satr - hisoblangan fukarolarning sug'urta badallari)	016	645381398

¹⁹ Xozarasp tumani DSI xisobot ma'lumotlari

№	Ko'rsatkichlar :	Satr- lar	To'lovchining ma'lumotlari bo'yicha
1	2	3	4
7.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallari chegirgan xolda jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar summasi	017	663837211
7.1	- shu jumladan avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	018	18788055
7.2	020-satrdan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxslarga ularning yozma arizasiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinmaydigan moddiy naf tarzida to'lanadigan daromadlar	019	
7.2.1	-shu jumladan avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	020	
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'langan summasi (ShJBPHga badallar summasini chegirigan holda)	021	87572000
8.1	- shu jumladan avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	022	
9.	ShJBPHga to'langan badallar summasi	023	7657470
9.1	- shu jumladan avvalgi soliq davri uchun daromad to'lash bo'yicha qarzdorlik hisobiga	024	94137,87

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni 91 kishini tashkil etgan. Hisobot davrining boshiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sugurta badallarini chegirgan holda jismoniy shaxslarga to'lanadigan daromadlar bo'yicha qarz 18788055 so'mni, ShJBPHga badallar chegirilgan hodda jismoniy shaxslardai olinadigan daromad solig'ini to'lash bo'yicha qarz 3077077,18 so'mni, ShJBPHga badallar bo'yicha bo'yicha qarz 94137,87 so'mni tashkil etgan.

Hisoblangan daromadlarning umumiy summasi 782645622 so'mni, soliq solishdan ozod kilingan daromadlar 63057360 so'mni, soliq solinadigan daromadlar (soliq solinadigan baza) esa 719588262 so'mni, Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi (ShJBPHga badallar chegirilgan holda) 88617877 so'mni tashkil qilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'langan summasi 87572000 so'mni tashkil etmoqda.

Biz quyidagi jadvalda Tuyamuyin GES davlat korxonasining 2012 yil 4 chorak uchun jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari rasshifrovkasini ko'rib chiqamiz.

2.2.2-jadval

Tuyamuyin GES davlat korxonasining 2012 yil jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari rasshifrovkasi

(yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan)

(so'mda)

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Imtiyozlar ko'llanilgan jismoniy shaxslar soni	Daromad summasi
Imtiyozlar summasi - jami (02- satr+ 05-satr)	01	x	63057360
shu jumladan:		x	x
a) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq - jami (03-satr + 04 -satr):	02	6	63057360 1
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasi bo'yicha (bandi va imtiyoz mazmuni ko'rsatiladi) (031-03.. , -satrlar yig'indisi)	03		-
shu jumladan:		x	x
31-6) O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromad summolari	033	5	15005000
1 bandi Moddiy yordam	035	91	41579000
3 bandi Kasallik varaqasi	03...	35	
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 180-moddasi bo'yicha (bandi va imtiyoz mazmuni ko'rsatiladi) (041-04...- satrlar yig'indisi)	04		6473360
shu jumladan:		x	x
5- bandi. 1 -guruh nogironi	041	1	
8-bandi. Afgonistonda harbiy xizmatni utagan	042	1	3236680
12-bandi. Bolaligidan nogiron farzandni tarbiyalovchi	04...	1	3236680

Manba: Tuyamuyin GES davlat korxonasining yillik hisobotlari asosida

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami imtiyozlar summasi 63057360 so'mni tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqarolarning soliq solinadigan ish qaqi va boshqa daromad summolari 15005000 so'mni, moddiy yordam 41579000 so'mni, Afgonistonda harbiy xizmatni utagan 3236680 so'mni, bolaligidan nogiron farzandni tarbiyalovchi bo'yicha summa 3236680 so'mni tashkil etmoqda. Korxonaning jami 91 ishchisidan O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqarolar soni 5 kishini tashkil qilmoqda. Jami 91 kishiga moddiy yordamlar berilgan. Afgonistonda harbiy xizmatni utagan 1 kishi, Bolaligidan nogiron farzandni tarbiyalovchi 1 kishiga imtiyozlar berilgan.

Quyidagi jadvalda jami imtiyozlar tarkibida imtiyozlar turlari bo'yicha salmog'ini ko'rib chiqamiz.


2.2.3-jadval

Jami imtiyozlar tarkibida imtiyozlar turlari bo'yicha salmog'i

Ko'rsatkich nomi	Daromad Summasi (so'm)	foizda
Imtiyozlar summasi - jami	63057360	100,0
O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromad summalari	15005000	23,8
Moddiy yordam	41579000	65,9
Afgonistonda harbiy xizmatni utagan	3236680	5,1
Bolaligidan nogiron farzandni tarbiyalovchi	3236680	5,1

Manba: Manba: Tuyamuyin GES davlat korxonasining yillik hisobotlari asosida

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromad summalari 23,8 foizni, moddiy yordam 65,9 foizni, Afgonistonda harbiy xizmatni utagan uchun 5,1 foizni va Bolaligidan nogiron farzandni tarbiyalovchi uchun 5,1 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlarni quyidagi diagrammada ham ko'rishimiz mumkin.



2.2.2-rasm²⁰. Tuyamuyin GES davlat korxonasining jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari tarkibi

²⁰Xozarasp tumani DSI xisobot ma'lumotlari

Tuyamuyin GES davlat korxonasining 2012 yil hisoblangan daromadlarning umumiy summasi 782645622 so'ni tashkil etgan bo'lsa, solish solishdan ozod qilingan daromadlar 63057360 so'mni, solish solishdan ozod qilingan daromadlar hisoblangan daromadlarning umumiy summasining 8,55 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2011 yilda hisoblangan daromadlarning umumiy summasi 569801230 so'ni tashkil etgan bo'lsa, solish solishdan ozod qilingan daromadlar 48766210 so'mni, solish solishdan ozod qilingan daromadlar hisoblangan daromadlarning umumiy summasining 8,05 foizini tashkil etadi. Ya'ni bu o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 punktga kamaygan.

2.2.4-jadval

Tuyamuyin GES davlat korxonasining jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlar salmog'ining dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		O'sish (+) Kamayish (-)	
	so'm	foiz	so'm	foiz	foiz	Punkt
Hisoblangan daromadlarning umumiy summasi	569801230	100	782645622	100	137,3	-
Soliq solishdan ozod qilingan daromad	48766210	8,55	63057360	8,05	129,3	-0,5
Jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar summasi	481400920	84,5	663837211	84,8	137,9	0,3

Manba: Tuyamuyin GES davlat korxonasining yillik hisobotlari asosida

Korxonada hisoblangan daromadlarning umumiy summasi 2011 yilga nisbatan 137,3 foizga o'sgan bo'lsa, jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar summasi 137,9 foizga o'sgan, ya'ni jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar 0,3 putga oshgan. Bu davlat tomonidan belgilangan imtiyozlar natijasida jismoniy shaxslarga to'langan daromadlarning oshganligini bildiradi.

Yuqoridagi tahlillarni Xozarasp paxta tozalash Ochiq aktsiyadorlik jamiyatida ham ko'ramiz.

2.2.5-jadval

**Xozarasp paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatida hisoblangan va
amalda to'langan daromadlar summolari hamda jismoniy shaxslar
daromadidan olinadigan solig'ining ushlab qolingani summolari to'g'risidagi
ma'lumotlar**

so'm

№	Ko'rsatkichlar :	Satr- lar	To'lovchining ma'lumotlari bo'yicha
1.	Yil boshidan daromad olgan jismoniy shaxslar soni, jami (kishi)	001	413
3.	Hisoblangan daromadlarning umumiy summasi, shu jumladan: (Ma'lumotlarning 1-ilovasidagi 01-satri)	010	2034834734
3.1	- soliq solishdan ozod kilingan daromadlar (Ma'lumotlarning 2-ilovasidagi 01-satr)	011	50515739
3.2	- soliq solinadigan daromadlar (soliq solinadigan baza) ,	012	1984318995
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi (ShJBPHga badallar chegirilgan holda)	014	190895330
5.	ShJBPHga hisoblangan badallar summasi	015	18364122
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallari chegirilgan holdagi hisoblangan daromadlarning umumiy summasi (010- satr - 014-satr - 015-satr - hisoblangan fuqarolarning sug'urta badallari)	016	1825575282
7.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallari chegirilgan holda jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar summasi	017	1823606224
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'langan summasi (ShJBPHga badallar summasini chegirilgan holda)	021	198099783
9.	ShJBPHga to'langan badallar summasi	023	117484000

Manba: Xozarasp paxta tozalash ochiq aktsiyadorlik jamiyatining yillik hisobotlari asosida

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi hisoblangan daromadlarning umumiy summasining 9,38 foizni tashkil etmoqda. Soliq solishdan ozod kilingan daromadlar hisoblangan daromadlarning umumiy summasining 2,48 foizni tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va fuqarolarning sug'urta badallari chegirilgan holda jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar summasi esa daromadlarning umumiy summasining 89,6 foizini tashkil etmoqda.

2.2.6-jadval

Tuyamuyin GES va Xozorasp paxta tozalash OAJda jismoniy shaxslar daromad solig'ining solishtirma tahlili

Ko'rsatkichlar	Tuyamuyin GES		Xoazrasp paxta tozalash OAJ	
	so'm	foiz	so'm	foiz
Hisoblangan daromadlarning umumiy summasi	782645622	100	2034834734	100
Soliq solishdan ozod qilingan daromad	63057360	8,05	50515739	2,48
Jismoniy shaxslarga to'langan daromadlar summasi	663837211	84,8	1823606224	89,6

Manba: Xozorasp DSI ma'lumotlari asosida hisob-kitob qilingan

Jadval ma'lusotlaridan ko'rinib turibdiki, Tuyamuyin GES da Soliq solishdan ozod qilingan daromadning hisoblangan daromadlarning umumiy summasidagi salmog'i 8,05 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Xoazrasp paxta tozalash OAJ da 2,48 foizni tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarning davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini bitiruv malakaviy ishining keyingi 2.3 bandida ko'rib o'tamiz.

2.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'siri tahlili

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, chet ellik fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan daromad solig'i olish to'g'risida"gi qonuni bilan joriy qilindi. Keyinchalik unga ayrim tuzatishlar kiritildi. Masalan, ilk o'zgarishlar 1991 yil 20 noyabrdagi qonun bilan, keyin 1992 yil 14 yanvardagi qonun, 1992 yil 2 iyuldagi qonun, 1992 yil 9 dekabrda qonun, 1993 yil 28 dekabrda qonun, 1994 yil 23 sentyabrdagi qonun bilan kiritildi. 1997 yil 24 aprelda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi joriy etilishi bilan O'zbekiston Respublikasining yuqorida sanab o'tilgan qonun hujjatlari to'liq yoki qisman o'z kuchini yo'qotdi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida keltirilgan soliqlar tizimi aslida

1997 yilda qo'llanilgan soliqlar va asosan ularning amal qilish tartibi saqlanib qolindi.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlarini tashkil etishda tutgan o'rni to'g'risida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, uning salmog'i quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.


2.3.1-jadval

Davlat byudjetida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rni²¹

Ko'rsatkichlar	2008 yil		2009 yil		2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz
Daromadlar, maqsadli jamg'armalar siz - jami	8 761	100	10 834	100	13 116	100	16 178	100	20 614	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1 109	12,7	1 312	12,1	1 535	11,7	1 790	11,1	2 373	11,5

2.3.1-jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjetida 2008 yilda 1109 mlrd.so'mni tashkil qilib, byudjetdagi solikli daromadlarning 12,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2009 yilda 1312 mlrd. so'mni tashkil qilib, solikli daromadlarga nisbatan 12,1 foizni, 2010 yilda 1535 mlrd. so'mni, ya'ni daromadlarga nisbatan 11,7 foizni tashkil etmoqda, 2012 yilda esa 2373 mlrd. so'mni, ya'ni daromadlarga nisbatan 11,5 foizni tashkil etmoqda. Ya'ni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega.

²¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.



2.3.1-rasm²². Jismoniy shaxslar daromad solig'ining davlat byudjetidagi salmog'i (foizda)

Demak, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar ichida eng asosiylaridan bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ulushining pasayib borishi byudjet parametrlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarning oshirilishidan dalolat beradi va bu o'z navbatida aholining ijtimoiy qatlamlarining daromadlar summalarining hajmi oshgani, turmush darajasining yaxshilanganiga bir muncha asos bo'la oladi.

Shunday qilib, aholi daromad solig'ining zaruriyati ijtimoiy manfaatlar ustunligida namoyon bo'lmoqda. Buning ma'nosi shuki, daromad solig'idan foydalanish aholining nominal pul va real daromadlari darajasini muayyan tarzda tartibga solish zarurligi bilan bog'liqdir. U mehnat natijalari bilan unga haq to'lash o'rtasidagi muvofiqlikni o'zgartirmasdan turib aholining pirovard daromadlari miqdorini o'zgartirish imkonini beradi. Daromad solig'i oraqali aholining pirovard daromadlarini shakllantirish ishlab chiqarish va iste'mol xususiyatlarini ta'riflab beradigan turli ob'ektiv omillarining ishtirok etishi vositasida amalga oshirilishi mumkin. Bu omillarning xilma-xilligi daromadlarning (shu jumladan ish xaqi) boshqa manbalari miqdorini tabaqalashtirish tizimi orqali to'liq hisobga olib bo'lmaydi.

²² Prezident qarorlari asosida ishlab chiqildi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ahamiyatini biz o'rganayotgan ob'ekt Xazorasp tumani misolida ko'rib chiqamiz.

2.3.2-jadval

Xazorasp tumani mahalliy byudjeti daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rni

Ko'rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	mln.so'm	%da	mln.so'm	%da	mln.so'm	%da
Daromadlar - jami	21053,7	100,0	22926,5	100,0	34299,8	100,0
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4795,7	22,8	5495,4	24,0	6660,8	19,4

Manba: Xazorasp tuman DSI xisobot ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xazorasp tumani mahalliy byudjeti daromadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 22,8 foizni, 2011 yilda 24,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 19,4 foiz bo'lganligini ko'zlatish mumkin.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlarida tutgan o'rni va ahamiyatini, shuningdek, uning Jizzax viloyati soliq tshumlari tarkibidagi ahamiyatini o'rganish natijasida xulosa qilish mumkinki, ushbu soliqni, jumladan, jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlarini soliqqa tortishning amaldagi mexanizmini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida unchalik ahamiyat kasb etmaydigan soliqlar ham mavjudki, ularni aholi daromad solig'i to'lagandan so'ng qolgan daromadlari hisobidan to'laydi. Bularga mol-mulk solig'i yoki turar joylarni majburiy sug'urtalash uchun sug'urta badali va hokozalar misol bo'la oladi. Mol-mulk solig'iga alohida to'xtaladigan bo'lsak haqiqatdan bu soliqni to'lashni asosiy manbai faqatgina boshqa majburiy soliqlar va to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng amalga oshirilishi lozim. Aynan shu soliq turi va shahar joylardagi er solig'i soliq to'lashga ob'ekt bo'lsada, ob'ektga nisbatan soliq to'lash manbai ish haqidan ma'lum soliqlar va majburiy to'lovlarni amalga oshirgandan so'ng to'lashlari shart.

Aks holda, yoki mulkdan ajrashi kerak, yoki moliyaviy jarimalar bilan qo'shib to'lashi kerak.

Ma'lumki, mazkur soliq va to'lovlar aholi real daromadini kamaytirishga olib keladigin resurslar yig'indisidir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aholidan olinadigan daromad solig'i barcha soliqlar va soliq vazifasini bajaruvchi majburiy to'lovlar ichida eng yuqori miqdorini tashkil etmoqda. Shunday ekan, aholidan olinadigan daromad solig'ining ob'ektiv zarurligi soliqqa tortishning «vujudga kelish manbalaridan qat'iy nazar barcha daromadlarni soliqqa tortilishi» orqali byudjet daromadlarini tashkil etishdan kelib chiqadi. Chunki byudjet manfaatlari va uning taqchillik darajasini (kamomadini) birmuncha kamaytirish nuqtai-nazaridan ham aholi daromadlarining soliqqa tortilishi ob'ektiv zaruriyatdir.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan mazkur bitiruv malakaviy ishining **ikkinchi bobi yakunida amaliy ma'lumotlar va materiallarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni beramiz:**

- Bugungi kunda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari samaradorligini baholash tartibi bo'yicha aniq uslubiy qo'llanma va metodika ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Aniq metodika mavjud bo'lmaganligi sababli jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari samaradorligini baholashda har xil kamchiliklarga yo'l quyiladi va natijada to'g'ri baho berilmasligi mumkin;

- Oxirgi yillarda joriy etilgan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari natijasida korxonalarda ishlayotgan jismoniy shaxslarning olayotgan daromadlarida o'sish surati ko'zatilmoqda. Soliq solishdan ozod qilingan daromad summasining hisoblangan daromadlarning umumiy summasidagi salmog'i kamayishi kuzatilmoqda.

- Joriy etilgan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari natijasida korxonalarda ishlayotgan jismoniy shaxslarning olayotgan daromadlari salmog'i har xil korxonalarda har xil nisbatlarni kuzatishimiz mumkin.

- Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlarining oshishi natijasida aholining real daromadi oshishiga olib kelmoqda. O'z navbatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti daromadlari tarkibida salmog'i payishi kuzatilmoqda. Buni Xazorasp tumani davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari tahlili tasdiqlamoqda.

3-bob. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish masalalari

3.1. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari samaradorligini baholashni takomillashtirish aholi daromadlarini oshirish omili sifatida

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribalaridan ma'lumki, mamlakat iqtisodiyoti uni rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini, iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarini, milliy qadriyat va xususiyatlarini, ma'naviy boyliklarini to'la hisobga oluvchi, mukammal iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqaror va mutanosib rivojlana oladi. Aynan mana shunday omillarni o'z mazmun-mohiyatiga singdirgan, bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'liq e'tirof etilayotgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" mamlakatimizning jadal ravnaq topishi, xalqimiz moddiy va ma'naviy hayotining tez sur'atlar bilan yuksalib borishi uchun mustahkam negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda to'g'ri yo'l tutganligi, uning rivojlanishi asosida qabul qilingan tamoyillarning mantiqiy yaxlitligi va keng qamrovi, eng muhimi, ularning xalqimiz hayoti mazmun-mohiyatini chuqur ifodalay olganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, 2008 yilda boshlangan hamda bugungi kunda hamon o'zining ta'sir oqibatlarini ko'rsatib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining milliy modeli yana bir bor sinovdan muvaffaqiyatli o'tganligi e'tirofga loyiqdir.

Prezidentimiz 2010 yil yakunlarini baholashda avvalo mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganini qayd etish zarurligini ta'kidladilar. Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq.

Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi. Iqtisodiy o'sishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda biron-bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o'lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

3.1.1.-jadval

2007-2012 yillarda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar % da	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Yalpi ichki mahsulotning o'sishi	9,5	9,0	8,1	8,5	8,3	8,2
Sanoat mahsulotning o'sishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3	7,7
Xizmat ko'rsatish hajmi	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1	15,0
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4	13,9
Davlat byudjetining bajarilishi	+1,1	+1,5	+0,2	+0,3	+0,4	+0,4
Inflyatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,3	7,6	7,0
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqining oshishi	44,2	40,0	40	32	26,5	26,5
Aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi	27,0	23,0	26,5	23,5	23,1	17,5


Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar natijasida 1996 yildan boshlab oldingi yilga nisbatan, 2001 yildan boshlab esa 1991 yildagi darajaga nisbatan YaIM hajmining barqaror ravishda o'sishiga erishildi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida yuzaga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramay, 2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, 2009 yilda 8,1 foizni, 2010 yilda esa 8,5 foizni, 2011 yilda 8,3 foizni, 2012 yilda esa 8,2 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab

chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda.



3.1.1-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, XQP bo'yicha AQSh dollari hisobida (yil boshiga nisbatan).

Rasmdan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 2017 dollarni tashkil etdi. O'rtacha oylik nominal ish haqi esa, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2011 yilning yanvar oyida 1162,6 dollarga etdi.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish,

xalqimizni ijtimoiy qo'llab- quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya'ni 2011 yilda 1991 yilga nisbatan AQSh dollari qiymatida 2,7 barobar, o'rtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini ta'minladi.

Pul daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'ldi.

Aholi farovonligi o'sishining muhim tarkibiy qismi xizmat ko'rsatish va xizmat turlariga nisbatan oshib borayotgan talabning ta'minlanishi bilan bog'liqdir. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi ijrosi davrida – 2007-2011 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol hajmi 1,8 barobar ko'paydi. Shu bilan birga, bu davrda xizmat bozori tarkibini takomillashtirish borasida qabul qilingan izchil chora-tadbirlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bank, moliya va sug'urta xizmatining yangi istiqbolli turlari jadal rivojlanishini ta'minladi va ular ushbu davr mobaynida 3 barobar o'sdi.

Aholi to'lov qobiliyatining ortishi ko'rsatilayotgan pulli xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbatan 1992 yil bilan qiyoslaganda, 2,2 barobar, maishiy xizmatlar bo'yicha esa 8,3 barobar o'sishini taqozo etdi, shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana tovar aylanmasi, birinchi navbatda, nooziq-ovqat mahsulotlari savdosining o'sishi hisobidan 4,3 barobar oshdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida 1991-2011 yillar davomida O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari 8,6 barobar oshdi.

Yalpi daromadlar tarkibida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko'rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo'ldi.

Mamlakatimiz xukumati tomonidan aholi daromadlarini oshirishga

qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o'rta sinfni shakllantirish imkonini berdi.

Aholining daromadlari miqdori O'tgan 2012 yilda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.

2013 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajada oshirish, 2013 yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish kutilmoqda.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani ko'rinib turibdi. O'tgan 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.

Aholining banklardagi omonatlari o'sishi 34,6 foizni tashkil qildi, so'nggi o'n yilda esa 40 barobardan ziyod oshdi. 2012 yilda mamlakatimizdagi barcha investitsiyalarning 20 foizdan ortig'ini aholi investitsiyalari tashkil etdi.

O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foizi va eng kam ta'minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012 yilda atigi 8,0 barobarni tashkil etdi. Bu jahondagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatimizning samarasi.

Odamlarning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini aholining muayyan guruhiga mansubligini anglashi ularning turmush darajasi va sifatining umumiy hamda yakuniy indikatori hisoblanadi.

Bu borada, albatta, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, odamlar istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda

obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, aholini sifatli iste'mol tovarlari, shu jumladan, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan ta'minlash, zamonaviy talablar asosida ta'lim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan bahramand bo'lish kabi hayot darajasini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlar inobatga olinadi.

O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan aksariyat indeks va ko'rsatkichlar bo'yicha katta o'zgarish va yutuqlarga erishildi. Ayni paytda oilalarning 97 foizi o'z uyiga ega, aholining 90 foizi uzoq muddat foydalaniladigan barcha asosiy tovarlar bilan ta'minlangan, har uch oiladan biri shaxsiy engil avtomobilga ega, aholi iste'mol mahsulotlari bilan etarli darajada ta'minlanmoqda.

3.2. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqni muvofiqlashtirish hisoblanib, bu yo'nalishga so'ngi paytda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda, birinchi navbatda aholining real daromadlarini oshirish va iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan to'lovga layoqatliligini kuchaytirish asosiy o'rinda turibdi. Shuning bilan birgalikda jismoniy shaxslar to'laydigan daromad solig'i byudjet daromadlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'idan keyin - uchinchi, to'g'ri soliqlar tarkibida esa birinchi o'rinni egallaydi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni jahon amaliyotining guvohlik berishiga ko'ra deyarli barcha rivojlangan davlatlarda progressiv stavkada undiriladi. Masalan, jismoniy shaxslar daromadlari AQShda 15 foizdan 39,6 foizga qadar, Buyuk Britaniyada 20 foizdan 40 foizga qadar, Frantsiyada 0 foizdan 56,8 foizga qadar, Germaniyada 19 foizdan 53 foizga qadar, Yaponiyada esa 10 foizdan 50 foizga qadar progressiv stavkada undiriladi²³.

Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyoti

²³ Завалишина И. Налоги: теория и практика. -Т.: "Мир экономики и права". 2005. стр. 112

joriy etilgandan e'tiboran differentsial progressiv stavka qo'llanilib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromadlarini ushbu tartibda soliqqa tortish o'zining bir qancha quyidagi afzalliklariga ega:

- soliqni hisoblash tartibi imkon qadar osonlashadi;

- jismoniy shaxslarni ko'proq daromad topishga bo'lgan moyilligi kuchayadi va real daromadlarini oshirishga bo'lgan intilishlari ortadi. Bu esa, jismoniy shaxslarni mehnat qilishga qiziqishiga, ishsizlar sonini kamayishiga hamda turmush darajasini ko'tarishga soliq vositasida rag'bat berish imkonini beradi;

- yashirin tarzda daromad topayotgan jismoniy shaxslarga daromadlarini ochiq-oydin oshkor etish imkoniyatini beradi, ular soliq stavkasi pastligi hisobiga soliqdan cho'chimaydilar;

- bu stavka hamma jismoniy shaxslar uchun bir xil bo'lishini belgilaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha jismoniy shaxslar teng huquqli bo'lgani uchun ham soliq solinishi ham teng bo'lishi lozim;

- davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha soliqdan qochish va bo'yin tovlash bo'yicha qilinadigan ma'muriy xarajatlar tejaladi;

- eng asosiysi esa bunday tizim barcha jismoniy shaxslarga tushunarli bo'lib, turli tushunmovchiliklar barham topadi, ular o'z haq-huquqlarini himoya qila oladilar.

Lekin jismoniy shaxslar daromad solig'i yagona stavkasi byudjetga bu soliq turi bo'yicha tushumlar kamayishiga olib kelmasligi lozim. Bu bir qadar murakkab jarayon bo'lib, soliqning optimal stavkasini aniqlash munozaraligicha qolmoqda. Ushbu masalani echishda soliqlarga doir bo'lgan jihatlarni e'tiborga olish bilan birgalikda, boshqa sohalarda ham islohotlar olib borish lozim. Ularning asosiylari sifatida mamlakatimizda investitsion muhitni yanada yaxshilashga e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, faqatgina investitsiya hajmining ortishigina yangi ish o'rinlarini yaratadi. Bu esa bugungi kunda respublikamizdagi ko'plab norasmiy ishsizlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradi, o'z navbatida ularning daromadlarini soliqqa tortish orqali yuqoridagi nomutanosiblikni bir qadar bartaraf etishga erishiladi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarni ayrim faoliyat turlari bo'yicha soliqqa tortish jarayoni erkinlashtirilishi lozim. Hozirgi paytda qaror topgan amaliyot mexanizmda jismoniy shaxslarning muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanishi bir qadar hujjatbozlikni talab etadi. Bunday sharoitda ular daromadlari yagona pastroq stavkada soliqqa tortilsada, jismoniy shaxslarning daromadlarini ochiq-oydin oshkor etish imkoniyatlarini cheklaydi.

Umuman olganda bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig'i muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu soliq turi bo'yicha islohotlar amalga oshirilishida ehtiyotkorona yondashishni talab etadi. Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarini takomillashtirishda bosqichma-bosqich islohotlarni davom ettirgan holda, uning stavkalarini uch pog'onali tizimdan ikki pog'onali tizimga va shu tarzda yuqoridagi yo'nalishlarni hisobga olgan holda yagona stavkani joriy etish o'z samarasini beradi.

Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi bir qator kamchiliklardan holi emas.

Shunga asosan aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tizimi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarida o'zi yo'q odamni rasmiylashtirishga, ya'ni norasmiy ishlovchilar sonini oshirishga bo'lgan g'ayriqonuniy fikrlarni vujudga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tartibini mavjud kamchiliklardan holi etish va takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Fikrimizcha, mazkur soliqqa tortish tartibini takomillashtirish quyidagi uch yo'nalishda bo'lishi zarur.

Birinchi yo'l - ortiqcha sarf qilingan mehnat orqali oshirilgan ish xaqini rag'batlantirish funktsiyasini oshirish.

Ikkinchi yo'l - ish xaqidan ushlanadigan daromad solig'i foiz hisobida aniqlanib, uning miqdori faqat bir xil foizda bo'lishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, bunday usulda soliqni chetlab o'tishni iloji yo'q, davlat byudjeti zarar ko'rmaydi, aksincha yuqorida misol qilib olingan qo'shtirnoq

ichidagi ishbilarmonlar hisobidan davlat byudjeti ko'payishiga shak-shubha yo'q.

Bundan tashqari, bunday usulni qo'llanilishi respublikamizdagi 350 minglik buxgalterlar ishini ancha engillashtiradi. Chunki bir kishi ish xaqidan ushlanadigan daromad solig'ining hisob-kitob ishlarini, yana, uning ustiga, soliqni har oyda qo'shib borishi orqali aniqlanishini nazarda tutilsa, buxgalter tomonidan bajariladigan ish hajmi va o'zi bilib-bilmagan holda xato qilishini ko'z oldimizga keltiraylik.

Shu bilan birga auditorlik yoki soliq inspeksiyasi tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarda vaqt etmasligi uchun bu sohani sifatli tekshirilishiga hech qanday shubha yo'q. Agar soliq yagona foizda ushlansa nafaqat bir oylik, hatto yillik oylik soliq hajmini tekshirish uchun bir necha daqiqagina sarf bo'ladi xolos.

Uchinchi yo'l - davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilgan muassasalar ishchi-xizmatchilarini nominal ish xaqidan real ish xaqiga o'tkazish.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hech bo'lmasa, byudjet muassasalarida real ish xaqi to'lash usuliga o'tish vaqti keldi.

Mamlakatning iqtisodiy sohasi aholining iqtisodiy ongi va iqtisodiy madaniyati asosida takomillashib boradi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga hamda insonda soliq madaniyatining shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, insonda soliq madaniyatining shakllanishi murakkab jarayondir. U inson ongli faoliyatining asosini tashkil etadi. Insonning soliq to'lovi faolligi turli xil soliq to'lovlarida va ijtimoiy-iqtisodiy islohot va jarayonlarni qo'llab-quvvatlashida namoyon bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo'lgan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorni aniqlash va soliq ortib borishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslariga nisbatan yuqorida bildirilgan fikrlarning inobatga olinishi, aholidan olinadigan daromad solig'i tartibini davr talabiga moslab takomillashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqni muvofiqlashtirish

hisoblanib, bu yo'nalishga so'nggi paytda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda, birinchi navbatda aholining real daromadlarini oshirish va iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan to'lovga layoqatliligini kuchaytirish asosiy o'rinda turibdi. Shuning bilan birgalikda jismoniy shaxslar to'laydigan daromad solig'i byudjet daromadlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'idan keyin - uchinchi, to'g'ri soliqlar tarkibida esa birinchi o'rinni egallaydi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni jahon amaliyotining guvohlik berishiga ko'ra deyarli barcha rivojlangan davlatlarda progressiv stavkada undiriladi. Masalan, jismoniy shaxslar daromadlari AQShda 15 foizdan 39,6 foizga qadar, Buyuk Britaniyada 20 foizdan 40 foizga qadar, Frantsiyada 0 foizdan 56,8 foizga qadar, Germaniyada 19 foizdan 53 foizga qadar, Yaponiyada esa 10 foizdan 50 foizga qadar progressiv stavkada undiriladi.

Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyoti joriy etilgandan e'tiboran differentsial progressiv stavka qo'llanilib kelinmoqda.

3.1.1-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona stavkasi joriy etilgan davlatlar²⁴

Davlatlar	Soliq stavkasi, %	Joriy qilingan yil
Estoniya	26	1994
Litva	33	1994
Latviya	25	1995
Rossiya	13	2001
Serbiya	14	2003
Ukraina	13	2004
Slovakiya	19	2004
Gruziya	12	2005
Ruminiya	16	2005

Jahon amaliyotida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning progressiv stavkalari bilan birgalikda yagona, oddiy foizli stavkada soliqqa tortish amaliyoti ham qo'llanilib kelinmoqda va o'z samarasini bermoqda. Jumladan,

²⁴ Юсупов Ю. Можно ли определить оптимальную долю бюджета в ВВП //Экономическое обозрение. 2005 № 7.

Rossiya Federatsiyasi soliq tizimiga nazar qaratadigan bo'lsak, jismoniy shaxslar daromad solig'i aynan yagona, oddiy foizli stavka, ya'ni 13 foizda undiriladi. Bu mexanizm jahon mamlakatlari orasida tobora ommaviylashib bormoqda.

3.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jahon soliqqa tortish amaliyotida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning yagona stavkasi 1994 yildan e'tiboran qo'llanilib, so'nggi yillarda ularning qo'llanilishi tobora kengayib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Rossiya Federatsiyasidagi jismoniy shaxslarga nisbatan yagona soliq stavkasining o'rnatilishi kutilgan darajadan ham yuqori ijobiy natijalarga olib keldi.

Rossiya tajribasining ko'rsatishicha jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasini pasaytirilgan holda va yagona qilib belgilash o'rta sinf daromadlarini oshkoralashtiribgina qolmay, umumiy soliq tushumini ko'paytirdi.

Biz bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi yakunida quyidagi xulosalarni beramiz:

- Jismoniy shaxslar daromadiga daromad solig'ini hisoblashdagi birinchi pog'onasini eng kam ish haqining besh baravaridan to'rt baravariga tushirish zarur va soliq imtiyozlarini belgilashda ikkinchi pog'onadan soliq stavkalarini kamaytirish maqsadga muvofiq.

- fuqarolarning mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarini soliqqa tortishda ishlamaydigan oila a'zolari uchun fuqaroning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadidan har oyda eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim teng daromad summasini chegirib qolgan summani soliqqa tortish lozim. Sababi 2013 yildan boshlab kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqani hisoblashda ishlamaydigan har bir oila a'zolariga eng kam ish haqining ikki yarim baravari miqdorida minimum hisoblanishi ko'zda tutilgan.

- jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish bo'yicha soliqqa tortilmaydigan minimumni soliq amaliyotida qayta joriy etish maqsadga muvofiq;

- Aholi real daromadlarini oshirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadidan pensiya jamg'armasiga ushlanadigan majburiy sug'urta foizini

kamaytirish zarur. Bu jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar samaradorligini oshirishga olib keladi.

-jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar samaradorligini baholashning xorijiy davlatlar tajribalarini amaliyotga qo'llash zarur.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlari samaradorligini baholash muammosidir. Eng maqbul soliqqa tortish tizimini ishlab chiqqan holda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qilish, tadbirkorlikning taraqqiy etishiga yordam berish va ijtimoiy muammolarni hal etib borish bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ham, undan keyin ham davlatning bosh maqsadi bo'lib qolaveradi.

Respublikamizda soliqqa tortish tizimi shakllanishiga juda ko'p vaqt ketmagan bo'lsa ham, soliqqa tortish tizimimiz yil sayin yangilanib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlarida davlatning aniq amal qiluvchi soliqqa tortish tizimi mavjudligi uning yuksak darajada taraqqiy etganligining belgisi hisoblanadi. Shuning uchun soliqqa tortish tizimini jahon soliq amaliyoti darajasida shakllantirish va rivojlangan mamlakatlarning soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalaridan soliqqa tortish tizimimizda foydalanish bozor munosabatlariga o'tish shart-sharoitiga moslashishda alohida ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy islohatlar sharoitida soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosini tashkil etadi. Mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ularni to'g'ri yo'naltirish samaradorligini oshirish va ijtimoiy iqtisodiy asosga tayanayotganligi juda muhimdir. Soliq byudjet siyosatining yaxlitligiga erishish mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, samarali byudjet- soliq siyosatini yuritishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Jismoniy shaxslar daromad soliqlari bo'yicha imtiyozlari samaradorligi tahlil qilinganda asosiy soliqqa tortiladigan baza, ya'ni ish haqi nuqtai nazaridan mavjud sharoit qoniqarli hisoblanadi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha fiskal siyosatning maqsadi, aholining o'rta va yuqori daromadli guruhlarini ko'paytirishdan iborat bo'lishi lozim.

Soliq tizimini bozor tamoyillari asosida isloh qilish sharoitida iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarning jismoniy shaxslarni daromadlarini soliqqa tortish yuzasidan ilg'or tajribalarini o'rganish va samarali bo'lgan usullarini iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tadbqiq etish bosh masala hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekiston Respublikasi soliq tizmining bir bo'g'ini hisoblanib, amalga oshirilayotgan soliq siyosati mamlakatning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli tarzda ta'sir etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning yakunida jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlari samaradorligini va uni baholash masalalari o'rganilib olingan **asosiy xulosalarni** qisqacha bayon qilamiz.

- Davlatimiz tomonidan aholi real daromadlarini oshirish maqsadida soliq jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish imtiyozlarni ko'paytirish natijasida aholining bugungi kunda real daromadlari oshib bormoqda;

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, jumladan, soliq sohasidagi islohotlar iqtisodiy o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning umumiy iqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari aholining turmush darajasini oshirishga hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishini ragbatlantirishga xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi;

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Daromad solig'i tufayli, yuqori daromadlarning bir qismi aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lgan toifalari foydasiga va umuman, jamiyat manfaatlarini yo'lida qayta taqsimlanadi, pirovard natijada esa, daromadlardagi tengsizlik ma'lum darajada qisqarishiga erishiladi;

- Bugungi kunda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari samaradorligini baholash tartibi bo'yicha aniq uslubiy qo'llanma va metodika ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Aniq metodika mavjud bo'lmaganligi sababli jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari samaradorligini baholashda har xil kamchiliklarga yo'l quyiladi va natijada to'g'ri baho berilmasligi mumkin;

- Oxirgi yillarda joriy etilgan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari natijasida korxonalarda ishlayotgan jismoniy shaxslarning olayotgan daromadlarida o'sish surati ko'zatilmoqda. Soliq solishdan ozod qilingan daromad summasining hisoblangan daromadlarning umumiy summasidagi salmog'i kamayishi kuzatilmoqda.

- Joriy etilgan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlari natijasida korxonalarda ishlayotgan jismoniy shaxslarning olayotgan daromadlari salmog'i har xil korxonalarda har xil nisbatlarni kuzatishimiz mumkin.

- Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlarining oshishi natijasida aholining real daromadi oshishiga olib kelmoqda. O'z navbatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti daromadlari tarkibida salmog'i payishi kuzatilmoqda. Buni Xazorasp tumani davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari tahlili tasdiqlamoqda.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish yuzasidan quyidagi **takliflarni beramiz:**

- Soliq imtiyozlarini baholash uchun quyidagi kriteriyalarni qo'llas maqsadga muvofiq:

- ijtimoiy samaradorlik;
- iqtisodiy samaradorlik;
- byudjet samaradorligi.

- Jismoniy shaxslar daromadiga daromad solig'ini hisoblashdagi birinchi pog'onasini eng kam ish haqining besh baravaridan to'rt baravariga tushirish zarur va soliq imtiyozlarini belgilashda ikkinchi pog'onadan soliq stavkalarini kamaytirish maqsadga muvofiq.

- Fuqarolarning mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarini soliqqa tortishda ishlamaydigan oila a'zolari uchun fuqaroning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadidan har oyda eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim teng daromad summasini chegirib qolgan summani soliqqa tortish lozim. Sababi 2013 yildan boshlab kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqani hisoblashda ishlamaydigan har bir oila a'zolariga eng kam ish haqining ikki yarim baravari miqdorida minimum hisoblanishi ko'zda tutilgan.

- Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish bo'yicha soliqqa tortilmaydigan minimumni soliq amaliyotida qayta joriy etish maqsadga muvofiq;

- Aholi real daromadlarini oshirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadidan pensiya jamg'armasiga ushlanadigan majburiy sug'urta foizini kamaytirish zarur. Bu jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar samaradorligini oshirishga olib keladi.

- Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar samaradorligini baholashning xorijiy davlatlar tajribalarini amaliyotga qo'llash zarur.

Yuqoridagi keltirilgan takliflar jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar samaradorligini yaanada oshirishga xizmat qiladi deb uylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2008 y. 40 b.
- 1.2. "Soliq va byudjet siyosatining 2013 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shunindek soliq hisobotini taqdim etish davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-343 son Qonuni, 2012 yil 25 dekabr.
- 1.3. «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2012 yil 26 aprel.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2011 yil 30 dekabr.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2012 yil yanvar.
- 1.6. «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1997 yil 29 avgust, 1-2 b.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 may.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi "Obod turmush yili" davlat dasturi to'g'risida" PQ-1920-sonli qarori.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 fevraldagi "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi" PQ-1717-sonli qarori.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2012 yil 25 dekabrda 1887-sonli qarori.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari

to'g'risida"gi 2011 yil 30 dekabrda 1675-sonli qarori.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 24 avgustda 4354-sonli farmoni.

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyulda "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4232-sonli Farmoni.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyunda Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-3620-sonli Farmoni

2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrda «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi 4058-son Farmoni.

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Qarori." Xalq so'zi"gazetasi 15.06.2005 y.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).

2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2009 yil 22 dekabrda 1245-sonli qarori

2.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2008 yil 29 dekabrda 1024-sonli qarori

2.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvarda PQ 1271-sonli qarori. «Barkamol avlod yili davlat Dasturi»

2.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi PQ-805 sonli qarori 1-ilovasi. "Yoshlar yili davlat Dasturi"

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa xuquqiy-me'yoriy xujjatlar

3.1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasining 2006 yil 29 sentyabrdagi 2006-40, 6-son qarori (ro'yxat raqami 1633, 2006 yil 31 oktyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 43-44-son, 434-modda) bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olishning xabardor qilish tartibida ro'yxatga oluvchi organlar va davlat soliq xizmati hamda davlat statistika organlari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi to'g'risida»gi yo'riqnoma.

3.2. Tasdiqlangan mahalliyashtirish Dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini o'llash tartibi to'g'risida nizom. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2012 yil 18 apreldagi 39, EG-01/14-1414, 6, 2012-16 va 01-02/8-6 – son qarori bilan tasdiqangan.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6-sonli Qarori.

3.4. "Bevosita xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 3 avgustdagi Qarori. // "Soliqlar va bojxona xabarlari" gazetasi, 2005 yil 5 dekabr, № 49.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

4.1. Islom Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: O'zbekiston, 2013. – 28 b.

4.2. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.

4.3. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar.

4.4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir – T.: "O'zbekiston", 2010. 80 bet.

4.5. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2010 yil 29 yanvar

4.6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: «O'zbekiston», 2009yil. 56 bet.

4.7. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish- davr talabi» -T.: Xalq so'zi, 14 fevral, 2009 yil.

4.8. Karimov I.A. «Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohat va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir» -T.:Xalq so'zi, 2008 yil., 9 fevral, № 28 (4438) 1-3 betlar.

4.9. Karimov I.A. "Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir".- "Xalq so'zi", 13 fevral 2007 yil. 2-5 betlar.

4.10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998. .

4.11. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yilning mustaqil taraqqiyot yo'lida- – Toshkent,: «O'zbekiston», 2007.-40 b

4.12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: «O'zbekiston», 2002.- b. 210-b.

5. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va maqolalar to'plami

5.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga

mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU. - 2012. – 382 b.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -376 b.

5.3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti.- Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.

5.4. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik- T.:Sharq, 2009. 448 bet.

5.5. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent: Akademiya, 2002.

5.6. Malikov T.S. Soliq yukining o'irligini keskin kamaytirish kerakmi? // Soliq akademiyasi. – Toshkent,2006.

5.7. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari (o'quv qo'llanma) / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent. 2007.

5.8. Скрипниченко В.А. Налоги налогообложение. -М.: Питер-Юг. 2010.

5.9. Никулина И.В. Общая теория налогообложения. -М.: Эксмо. 2010.

5.10. Лазарев Н.В. Налоги налогообложение -М.: Феникс. 2009.

5.11. Виварец А.Д., Майбуrows И.А. Налоги налогообложение. -М.: Юнити-Дана. 2009.

5.12. Завалишина И. Налоги: теория и практика. -Т.: "Мир экономики и права". 2005.

- 5.13. Sh.Toshmatov va b. Soliq to'lovchilar bilan ishlash. O'quv qo'llanma.- T.:Yangi asr avlodi, 2010.-26 b.
- 5.14. Yaqyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent: “G'.G'ulom”, 2000.
- 5.15. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.
- 5.16. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – T.: 2007. -320 b.
- 5.17. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot: O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005. –544 b.
- 5.18. Temur tuzuklari T:.. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va sanat Nashiriyoti 1996 yil.
- 5.19. Toshmatov A Sh Juraev, o Abduraxmonov Soliqlar va soliqqa torish Toshkent-“Norma” nashriyoti - 2009 yil 183 bet.
- 5.20. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. – 247 b.
- 5.21. Качур О.В. Налоги и налогообложение. –М.: КНОРУС, 2009, -328 с.

6. Foydalanilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari

- 6.1. Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. / Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2005.
- 6.2. Adizov A.J. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish / Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.- T.: DJQA, 2004
- 6.3. Yuldashev O. T. O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. 2011 y.

7. Jurnal va gazetalardagi maqolalarga havolalar

- 7.1. Юсупов Ю. Можно ли определить оптимальную долю бюджета в ВВП //Экономическое обозрение. 2005 № 7.

- 7.2. Gadoev E.F. Investitsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning roli. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasi Soliq Akademiyasi. 2013 yil.
- 7.3. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya-kredit muassasalarining investitsion faolligini oshirish" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. –T.:TDIU, 2013. -552 b.
- 7.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank- moliya tizimini barqarorligini ta'minlashni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjumani , -T., 2012 yil.
- 7.5. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. –T.: "Iqtisodiyot", 2011. -279 b. TDIU, (2011 yil 16 mart)
- 7.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari.-T.: DSQ Soliq akademiyasi, 2010 yil 21-22 may.

8. Hisobotlar va statistik materiallar

- 8.1. « Soliqlar va bojxona xabarlar» moliyaviy iqtisodiy gazetasi 2010-2013 yillar
- 8.2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari
- 8.3. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari
- 8.4. Xazorasp tumani Davlat soliq inspeksiyasi hisobot materiallari

9. Internet sahifalariga havolalar

- 9.1. www.nalog.ru
- 9.2. www.soliq.uz
- 9.3. www.stat.uz
- 9.4. www.mf.uz
- 9.5. www.law7.ru
- 9.6. <http://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/7693>,_Депутатлар 2013 йилги Давлат бюджетини қабул қилдилар. 16.11.2012.